

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



Namangan Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti

4-kurs 402-guruh talabasi

BOYMIRZAYEV AKRAMJON

ABDUSATTAROVICHning

“So’fi Olloyorning axloqiy –ta’limiy qarashlari”

mavzusida yozgan

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

O.Boltaboyeva

Namangan -2011

MUNDARIJA

Kirish.....	3-9
I-bob. So'fi Olloyor-islomiy irfoniy adabiyot vakili.	
1.1. So'fi Olloyor hayoti va faoliyati.....	10-14
1.2. So'fi Olloyor-diniy didaktik asarlar muallifi.....	15-17
II-bob. So'fi Olloyor ijodida ma'naviy –ma'rifiy g'oyalar talqini.	
2.1. “Sabot ul -ojizin” asarining ma'rifiy yo'nalishi.....	18-23
2.2. “Maslak ul-muttaqin” asaridagi axloqiy qarashlar.....	24-26
2.3. “Murod ul orifin” asarida tasavvuf ilmi targ'iboti.....	27-29
III-bob. So'fi Olloyor ijodida obraz, g'oya va badiiyat.	
3.1. So'fi Olloyor ijodida komil inson timsoli.....	30-34
3.2. So'fi Olloyor asarlarida g'oya va badiiyat mutanosibligi.....	35-44
Xulosa.....	45-48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	49-51

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Vatanimiz mustaqilligi yildan yilga an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadimizni amalga oshishida ulkan imkoniyatlar yaratib kelmoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy- buyruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib, “O'zbek modeli” deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Ushbu modelning ma'no- mazmuni- davlat qurulishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir. Tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanlab olganimiz tufayli xalqimizni og'ir

oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo'lganimizni bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.¹

So'fi Olloyor islom dini va adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin olgan ulkan ijodkordir. So'fi Olloyor nafaqat shoir yoki tariqat shayxi, balki u zot shariat ilmlarining bilimdoni va targ'ibotchisidir. So'fi Olloyorning barcha asarlari insoniyatga haqiqiy islomni tushuntirish, dinu diyonatga boshlash, odob-axloqni o'rgatish va sof tasavvuf yo'lini tutishga qaratilgandir. XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab o'tgan So'fi Olloyor arab, fors va o'zbek tillarida nodir kitoblar yozib qoldirgan.

Tarixga nazar tashlasak, o'zbek adabiyotining zabardast siymolaridan biri zullisonayn shoir, naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi So'fi Olloyor ijodi 1917 yilga qadar forsiy va turkiy tilda so'zlashuvchi har bir mo'min va musulmon tomonidan e'zozlanib, o'qib kelingan; ularga arabiy, forsiy va turkiy sharhlar bitilgan. Maxsus lug'atlar tuzilgan. Xususan, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida Ra'no o'n to'rt yoshida "Haftiyak", "Qur'on" "Chahor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslak ul-muttaqin" kabi asarlar bilan birga Alisher Navoiy, Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil ijodi bilan tanishib chiqqan oqila, dono tarbiya ko'rgan qiz siymosida gavdalanadi. Ko'rish mumkinki, So'fi Olloyor ijodi ko'p yillar xalqimizni qiziqtirib kelgan. Adib ijodiga bo'lgan cheksiz muhabbat tufayli mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq So'fi Olloyor asarlari qayta nashr qilinib, kitobxonlar ko'nglidan joy oldi. Insoniyat ma'naviyatining negizi bo'lmish bunday noyob asarlarda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishi haqida gap ketadi. Halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan kishilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Biz har doim keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan bahra olishga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishimiz; ularni ochib o'rganilmagan jihatlariga e'tiborimizni qaratib, xalqimizni tanishtirib borishimiz darkor. Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik saxovat va kamtarlikka chaqiradi".¹

Insoniyatning bu yorug' olamdagi eng ezgu maqsadi ruhan pok, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg'oq bo'lib yashash ekan, bunday maqsadalarga, albatta, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqali erishish mumkin.

"Bizning eng ezgu maqsad-muddaomiz - dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirishdan iboratdir"²- deb hurmatli Prezidentimiz o'z nutqlarida ham ta'kidlab o'tadilar. Buning uchun o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra bir-biriga teng, bir-birini to'ldiradigan ikki hal qiluvchi vazifani amalga oshirish bizning doimiy e'tibor markazimizda turishi zarur.

Mumtoz adabiyotimiz namunalaridan hisoblanmish So'fi Olloyorning adabiy merosi insonni ma'nan yetuk, qalban pok bo'lishiga chorlaydi. So'fi Olloyorning axloqiy-ta'limiy qarashlarini o'rganish, shoir asarlarini barkamol avlod tarbiyasidagi o'rnini belgilash adabiyotshunoslar oldidagi muhim masalalardan biridir. Umuman olganda, So'fi Olloyorning zullisanoylik an'anasining davomchisi sifatidagi faoliyati hamda diniy-ma'rifiy va axloqiy-ta'limiy asarlarining tadqiqi o'z ilmiy yechimini topishga mushtoqligi bitiruv-malakaviy ishning dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv –malakaviy ish mavzusining o'rganilish darajasi.

Sharqning ulug' mutafakkir allomalari va ular qoldirgan ijtimoiy ma'naviy merosga bo'lgan ehtirom tufayli umuminsoniy qadriyatlar tiklanayotgan mustaqillik kunlarida So'fi

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2010. 5-bet.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch Toshkent: Ma'naviyat.2008.B-21

² Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1- sentabr;

Olloyorning ijodiy merosi xalqimizga qaytarib berilganini iftixor bilan aytish mumkin. Zero, So'fi Olloyor nafaqat islom dini va shariati uchun, balki butun insoniyat ma'naviyati, madaniyatining rivojlanishiga, umuminsoniy qadriyatlarni boyishiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan adibdir. So'fi Olloyor adabiy merosining o'rganilishi u yashagan davrdan boshlangan. O'sha davrdayoq adibning turkiy, forsiy tilda bitilgan kitoblariga lug'atlar tuzilgan, sharhlar yozilgan. Jumladan, B.Hasanovning "Qo'lyozma lug'atlar tavsifi" maqolasida ma'lumot berilishicha, shoirning "Maslak ul muttaqin" kitobiga tuzilgan lug'at Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining Hamid Sulaymon fondida saqlanadi.¹ XIX asrda ko'chirilgan bu lug'atda 950 ta maxsus istilohlar mazmuni izohlanganligi va har bir so'z forsiy ma'nodoshi bilan berilganligi, shu lug'atning yana boshqa bir nusxasi ham bor bo'lib, undagi istilohlar soni sal kam ikki mingta ekanligi e'tirof etilgan. Filologiya fanlari nomzodi Rashid Zohidov ma'lumotiga ko'ra, Olim Bulg'oriy So'fi Olloyorning "Murod ul-orifin" kitobiga sharh yozgan. Tojik tilidagi bu sharh "Tuhfat-ut -tolibin fi sharhi "Murodul-Orifin" deb bitilgan. Tatar olimi Tojiddun Yolchiqu "Sabot ul-ojizin" kitobiga "Risolai Aziza" degan sharh bitgan. Said Habibulloh ibn Yahyoxon tomonidan Pokistonda chop etilgan "Hidoyat ut-tolibin" sharhi "Sabot ul-ojizin" nomli kitobi ham e'tiborga molikdir. Kitob muqaddimasida xabar berilishicha, sharhga asos bo'lgan matnda oltita nusxani o'zaro qiyoslab tiklangan. Muallif muqaddimaning "Sababi ta'lif" qismida mazkur sharhning yozilishi sabablarini ham bayon etadi.¹ Ulug'lardan biri: "Sabot ul-ojizin" "mag'zi Qur'ondir" degan ekan. Demak, bu mag'zga yetish, bayt mazmunini sharhlab, undagi tasvir vositalarini sanash bilangina amalga oshmaydi, balki baytlarga yashiringan sirlar tafsir yordamida ochiladi, nozik va chigal ma'nolar hikmatini hodisalar chaqib beradi, sharhlaydi. Ana shundagina So'fi Olloyor shaxsi, uning ijodiy quvvati butun qirralari bilan nomoyon bo'ladi, tildagi fasohat va balog'at to'la anglanadi.

So'fi Olloyor ijodi xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, chinakam tarixini tushunib yetguncha ijodi qatag'on qilingan shoirlar qatorida tahlil etib kelingan. Jumladan, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oni, Hazrati Hasanquli Ahsoniy kabi buyuk zotlar qatoridan joy olgan So'fi Olloyor ijodi ham diniy-mistik adabiyot yo'nalishida tahlil doirasiga tortilgan. Yuqorida nomi zikr etilgan shoirlarimiz ijodi o'zining haqiqiy bahosini mustaqilligimiz sharofati bilan qaytadan topdi. Mustaqilligimiz sharofati bilan qadriyatlarimiz tiklandi, o'zligimizni anglay boshladik. So'fi Olloyor ijodi sho'ro tuzumi davrida o'ziga xos tarzda baholanagan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng uning asarlari adabiyotshunoslik, tilshunoslik yo'nalishidagi bir necha tadqiqotlarda o'zining asl mohiyatini topdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq shoir asarlari toshbosma va qo'lyozma nusxalarga qiyoslangan holda nashrga tayyorlandi. Shoir ijodi bilan bog'liq maqolalar, ilmiy ishlar tayyorlandi. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi Rashid Zohidov tomonidan So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari 1991 yilda va yana qayta mukammallashtirilib 2007 yilda nashrga tayyorlandi.² So'fi Olloyorning bu asari 1991 yilda Hoji Po'latqori. M. Hasaniy, M.Qosimlar tomonidan ham nashrga tayyorlanagan.¹ 1996 yilda Shamsiddin Hoji Muhiddin o'g'li So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" kitobiga izohiy lug'at tuzgan.² So'fi Olloyor ijodining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil etgan. I.Suvonqulov "So'fi Olloyor va uning adabiy an'analari" mavzusida 1997 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Rashid Zohidov tomonidan "Sabot ul-ojizin" asari leksikasi o'rganilib, 2001 yilda nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. N.Allayorova tomonidan esa 2002 yilda "Sabot ul-ojizin asarining ma'rifiy yo'nalishi va badiiyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi himoya etildi. So'fi Olloyorning axloqiy-ta'limiy qarashlari keng yoritilgan bir necha maqolalar matbuot yuzini ko'ra boshladi. Shoir ijodi tahlil etilgan kitoblar nashr etila boshlandi. Jumladan, Sh.Sirojiddinovning 2001 yilda "So'fi Olloyor ilohiyoti" kitobi Toshkent shahrida chop etildi. 2002 yilda esa Samarqandda N.Baratovanning "So'fi Olloyorning badiiy-ma'naviy qarashlari"

¹ Hasanov B.Qo'lyozma lug'atlar tavsifi. Adabiy meros. Toshkent.: 1980. 3-son. B-80

¹ So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Sa'nat jurnali. 2007.B-4

² So'fi Olloyor.Sabot ul ojizin.nashrga tayyorlovchi Rashid Zohid. Toshkent: San'at jurnali.2007 yil.

¹ So'fi Olloyor Sabot ul ojizin. Nashrga tayyorlovchi Hoji Po'lat Qori, M.Hasaniy, M.Qosim.-T., Mehnat, 1991 yil.

² Shamsiddin Hoji Muhiddin o'g'li.So'fi olloyorning "Sabot ul ojiziy" kitobiga izohiy lug'at.-Jalolobod.1996yil

kitobi nashrdan chiqdi. Inoyatullo Suvonqulovning 1995 yilda nashr ettirgan “So’fi Olloyor” kitobida ham nashr ijodining o’ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. So’fi Olloyorning din, imon va e’tiqodga doir asarlaridan biri “Maslak ul muttaqin” nomi ostida tarjima qilingan. Ushbu asar 2007 yil Toshkentda “Movarounnahr” nashriyotida chop etildi. Asarni Sayfiddin Sayfulloh va Akram Dehqonlar nashrga tayyorlashdi. Ushbu asarning o’ziga xos mohiyati shundaki, shariatni o’rganish, bilish, unga amal qilib, sadoqat bilan xizmat qilish kabi masalalar shariat hukmi, Qur’on va hadis asosida sharhlab, tushuntirib berilgan. Bu tadqiqotlarning barchasida So’fi Olloyor hayoti, uning adabiy merosi, shoir ijodining ma’lum bir qirrasini tahlil doirasiga tortilgan bo’lsa, biz ana shu tadqiqotlarga suyanagan holda zullisonayn shoir ijodidagi axloqiy ta’limiy qarashlarning o’ziga xosligi hamda ularning islomiy-ma’rifat va diniy e’tiqod izlarini anglab yetishdagi o’rni; So’fi Olloyorning diniy-ma’rifiy asarlarida aks etgan ma’no, mazmun va badiiyat mutanosibligini atroflicha yoritib berishiga harakat qilamiz.

Bitiruv- malakaviy ishning maqsad va vazifalari.

Ushbu bitiruv-malakaviy ishga So’fi Olloyor ijodini puxta o’rganish, shoirlik salohiyatini va san’atkorlik mahoratini xolis baholash, asarlarining shakl mazmuniga haqqoniy va ilmiy asosda baho berish, ijodining o’ziga xos g’oyaviy mazmunini yoritish, diniy-ma’rifiy asarlarida komil inson tushunchasini hikmatomuz baytlar tahlili ostida bayon etish maqsad qilib qo’yilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

1. So’fi Olloyorning hayot yo’li, adabiy merosi haqida ma’lumot berish.
2. So’fi Olloyor ijodi mustaqillik davrigacha va mustaqillikdan so’ng qay darajada o’rganilganini yoritish.
3. So’fi Olloyor islomiy-irfoniy adabiyot vakili sifatida diniy-didaktik asarlar muallifi ekanini yoritib berish.
4. So’fi Olloyorning diniy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy asarlari haqida mukamal ma’lumot berish.
5. Shoir ijodidagi islomiy ma’rifat va tasavvuf ta’limoti g’oyalariga bo’lgan munosabatni aniqlash.
6. So’fi Olloyorning diniy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy asarlarini ilmiy jihatdan tahlil etish.
7. Shoir ijodining g’oyaviy mazmuni va badiiy jihatlarini aniqlash, shoirlik mahoratining o’ziga xos qirralarini ko’rsatib berish.
8. Zullisonayn shoir ijodida komil inson timsoli va komillik sari yetaklovchi baytlar tahlilini bayon etish.
9. So’fi Olloyor ijodida g’oya, mazmun va badiiyat mutanosibligiga ishora etuvchi baytlarni ilmiy jihatdan tahlil etish.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy umumlashma xulosalaridan o’zbek adabiyoti tarixini yoritishda foydalanish mumkin. Xalqimizni shoir ijodi bilan yanada yaxshiroq tanishtirish; islomiy-irfoniy adabiyotning o’ziga xos jihatini anglab yetishda So’fi Olloyor ijodini o’rganish; muhim nazariy ma’lumotlarni egallashda bitiruv-malakaviy ishning o’rni beqiyosdir.

Bitiruv-malakaviy ishning amaliy ahamiyati XVII asr oxiri XVIII asr boshi adabiyoti tarixiga oid darslik va o’quv qo’llanma yaratish. Oliy o’quv yurtlari filologiya fakul tetlarida So’fi Olloyor ijodi bo’yicha fqladigan maxsus kurslar uchun ma’ruza matni tayyorlash; “So’fi Olloyor hayoti va ijodi” bo’yicha kurs ishi va referat tayyorlash va nihoyat So’fi Olloyor ijodidagi o’ziga xoslik, tasavvufnoma baytlar tahlilini mukammal amalga oshirishdadir

Bitiruv –malakaviy ishning tadqiqot metodi:

Bitiruv –malakaviy ishning har bir tahlil yo’nalishida So’fi Olloyor ijodiga ilmiy jihatdan xolis yondashishga harakat qilindi. So’fi Olloyor ijodi qiyosiy va badiiy estetik, tavsifiy tahlil usullari asosida amalga oshirildi, axloqiy-ta’limiy qarashlarni ifodalovchi she’rlar tahlil doirasiga tortildi.

Bitiruv –malakaviy ishning manbai:

Tahlil jarayonida So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin", "Maxzan ul-muttaqin", "Murod ul –orifin" kabi asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. So'fi Olloyor ijodini olimlarimiz tomonidan yaratilgan tasavvuf ilmiga doir asarlar, pandnoma mazmunidagi asarlar tahliliga doir ilmiy-tadqiqotlar va eng asosiysi shoir badiiyatini yoritishda beqiyos xizmat qiluvchi Anvar Hojiahmedovning "She'riy sa'natlar va mumtoz qofiya" kabi bir qator she'riy san'atlarga bag'ishlangan ilmiy yo'nalishdagi asarlari ham tadqiqot manbai bo'lib xizmat qilagan.

Bitiruv –malakaviy ishning tuzilishi.

Bitiruv –malakaviy ish kirish 3 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. SO'FI OLLOYOR – ISLOMIY – IRFONiy ADABIYOT VAKILI

1.1. So'fi Olloyor hayoti va faoliyati

So'fi Olloyor arab, fors va o'zbek tillarida nodir asarlar yozib qoldirgan, dinimiz va adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin egallagan beqiyos ijodkor. Uning noyob asarlari xalqimiz ma'naviyatining ko'zgusidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov: "Ma'naviyati yuksak xalq buyuk davlatdir",-degan edilar. Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.¹ Elning ma'naviyatini yuksaltiradigan, kamolga yetkazadigan eng kuchli vositalardan biri esa adabiyotdir. Mustaqillik sharofati bilan millatga ma'naviy barkamollik baxsh etuvchi Hadisi shariflar, Ahmad Yassaviy, Huvaydo, So'fi Olloyor kabi o'nlab ijodkorlarimizning asarlari dasturlarga kiritildi. Bu ijodkorlarning adabiy merosini chuqur anglab, yoshlar ongiga singdirish yo'lga qo'yildi.

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an'alarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan iste'dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir. So'fi Olloyor 1644 yilda Samarqandning Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida xitoy-qipchoq qabilasining o'tarchi urug'idan bo'lgan Olloquli (Temiryor) xonodonida dunyoga kelgan². Olloyor dastlabki ta'limni masjid maktabida oladi. Shayxlar qishlog'idagi ibtidoiy maktabdan so'ng o'n ikki yoshlarida Buxoroga madrasa tahsilini olish uchun boradi. Otasi Olloquli o'qimishli, taqvodor bo'lib, o'g'illarining, jumladan, Olloyorning islomiy ilm olishga alohida e'tibor bergan. Olloqulning katta o'g'li Farhod beklilik mavqeiga ko'tarilgan, Olloyor esa o'z zamonasining islom dini rahnomalaridan biri sifatida shuhrat qozongan. O'n ikki yoshlarida Buxoroning Jo'ybor shayxlari huzurida ta'lim olgan Olloyor tahsil yillaridan so'ng oz muddat Abdulazizxon saroyining boj yig'uvchilari qatorida davlat xizmatida bo'lgan. Buxoroda Jo'ybor shayxlari huzurida o'n besh yil tahsil olish mobaynida So'fi Olloyor turli ilm va kasblarni o'rganadi. Buxoroda uylanadi. So'fi Olloyorning uch farzandi, ya'ni ikki qiz va bir o'g'li bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Qizlarning ismi Omina, Halima bo'lib, o'g'lining ismi Muhammadsodiq edi.¹ So'fi Olloyor Buxoro bojxonasida bo'lg'ir bo'lib hech qancha vaqt ishlamagan. Bunga sabab, u halol, pok yashashga o'rganib qolgan edi. Oddiy xalqni turli xil

¹ Karimov I.A..Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.b-19

² Orzibekov Rahmonqul. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent:. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. 2006. 68-bet.

¹ Adizova Aqboloy. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan. 2009. B-95

hiyla-nayrang ishlatib aldayotganlarni xizmat davomida kuzatar ekan, o'zi ham nopok odamlar qatoriga qo'shilib qolishni xohlamagan. So'fi Olloyor bojgirlik xizmatini ixtiyoriy tarzda tark etib, Jo'ybor shayxlari ta'siri va o'zining e'tiqodi qistovi bilan islom ta'limining Buxorodagi sarvarlaridan Navro'z Eshonga murid tushib, o'z umrini naqshbandiya yo'liga astoydil bag'ishlagan.

So'fi Olloyorning fors tilidagi "Maslak ul muttaqin" asarida piri komil hazrati Navro'z haqidagi nazmiy qaydlar uchraydiki, bu yerda biz nazmiy qaydni mazmuniga e'tibor beramiz: "Asr shohi" (Buxoro xoni) Abdulazizxon (1645-1680) huzurida xizmatda edim, yegan nonim zahar-zaqqum edi. Nogohon Ollohning inoyati bilan ul zotning muhabbatiga bog'landim. Ul Ollohning habibi yo'lida bo'lgan murshidning muborak nomi Navroz bo'lib, boshdan oyog'i dardu so'zdir. Ul zotning vasfini bayon etmoq mushkuldir. Uning jazbasi shunchalik tortdiki, eng nozik tomirlaru har bir soch tolasigacha harakatga keldi. Darhol poyiga tiz cho'kdim va unga qo'l berdim.² So'fi Olloyor naqshbandiya tariqatiga mansub ekanligini asarning hamd qismida ta'kidlab o'tadi. So'fi Olloyor asarining hamd qismida gumrohlik bilan kun kechirib, amaldor bo'lib yurgan kezlari nogohon Olloh inoyati bilan baxti chopib, darvishlarga, ya'ni suluk ahli safiga qo'shilib, haqiqat yo'liga kirgani va bu yo'lga kirgach, qalbini zulmat tark etib, ilohiy nur uni chulg'ab olganini yozadi. Shoir Ollohning bu tavfiq va hidoyatini mamnuniyat bilan qayd etadi:

Nogahon az inoyati Bori,
Dod sultoni baxti man yori.

Toki gashtam muhibbi darveshon.
Yoftam suhbatini xushi eshon.¹

Mazmuni: Nogahon Olloh inoyati bilan baxtim sultoni yor bo'ldi. Darvishlarga muhabbatim tushib, ularning xush suhbatini topdim.

Asarda shoir e'tirof etishicha, tariqatga yo'llangan, tasavvufning sir-asrori, rohu ravishidan ta'lim bergan dastlabki piri murshidi Xoja Navro'zdir. So'ngra Buxorolik mashhur naqshbandiy shayxi Habibulloh eshonga qo'l berib, u kishiga xizmat qilib, o'zi ham shayxlik darajasiga erishadi.

Shoir asarda ruhiyatiga, botiniy dunyosiga ta'sir qilgan pirlarni vasf qilar ekan, hatto ijod qilishda ham ulardan ma'naviy madad yetib turganligini faxr bilan eslab o'tdi.

Quyidagi baytlarda shoir yaratgan. Egam dargohiga sidqidildan tavba-tazarru qilib, undan ma'rifat va haqiqat yo'lini ko'rsatishni yolvorib so'raydi:

Garchi hastam ba churmi isyon g'arq
Tu makun ro'zi farq-muchibi harq.

Yo ilohi, kushoy diydin mo,
Badurusti tu bar aqidai mo.

Az umuri shariati akram,
Kori moro makun ziyodavu kan.

Qomatro libosi taqvo neh,
Harchi talbam az onam aqvo neh²

Tarjimon Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li ushbu baytlarni quyidagicha sharqlaydi.

"Garchi men jurmu isyonga g'arq bo'lsam ham, Sen qiyomat kuni olovga (do'zaxga) sazovor qilma. Yo ilohim, bizning e'tiqodlarimizni durust qilib, ko'zlarimizni och. Rasululloh

² .Sirojiddinov Shuhrat. So'fi Olloyor islohiyoti. 1-qism. -Toshkent: , 2001. B-9

¹ So'fi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. (Tarjimon Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li). Toshkent: Mavaraunnahr.2007.B-15

² So'fi Olloyor. Maslak ul muttaqin. Toshkent: Mavaraunnahr.2007.B-16

shariatlarining buyruqlaridan bizning ishimizni ziyodayu kam qilma. Qomatimga taqvo libosni ber, har narsaki, sendan talab qilsam, undan ortiqroq qilib ber.¹

So'fi Olloyor o'z umrining oxirgi yillari Buxoro amiri tomonidan akasi Farhod Otaliqning ta'tishidan xavfsirab G'uzor bekligiga ketib, Denov muzofatida yashay boshlaydi. U ancha uzoq umr ko'rib, 1724 yilda Katta Vaxshivor qishlog'ida vafot etadi. Umrining oxirida Surxandaryo viloyatining Denov muzofatida yashagan So'fi Olloyorning qabri ham o'sha joyda ekanligi haqida Inoyatullo Suvonqulov, Rashid Zohidov, Po'latjon Domullo Qayumovlar o'z tadqiqotlarida ma'lumot berishgan.²

So'fi Olloyorning o'z jigari Farhod Otaliqqa yozgan bir maktub muhammasida uning o'zga yurtlarga ketishi sababiga doir ishoralar bor. So'fi olloyor farzandlarining qadamjolari Samarqand viloyati pastdarg'on tumanining CHo'nqaymish qishlog'idadir.³

So'fi Olloyor Buxorodan qaytgach, ancha yillar Kattaqo'rg'onda yashaganligi, masjid va xonaqoh qudirganligi haqida ma'lumotlar bor. U hayot kechirgan mahallani So'fi guzari deb atashgan, hozir ham shunday.

So'fi Olloyorga zamondosh o'qimishli, orif shoirlardan biri shoir vafotiga bag'ishlab marsiya tarix yozgan. Bu tarix- she'rdagi tarix moddasidan abjad hisobiga ko'ra hijriy 1333, melodiy 1724-1725 yil chiqadi.⁴ Shu tarix-marsiyada So'fi Olloyorning islom ma'navitida tutgan o'rni yuksak baholanib, "Abu Hanifai vaqt ast" -hanafiy mazhabidagi musulmonlarning sardori Imom A'zam Jiloniy (Giloniy) bilan bir qatarga qo'yiladi. Ma'lumki, Imom A'zam sunniy (hanafiy) musulmonlarining rahnomosi bo'lib, "Savodi A'zam" ilohiyot kitobida Qur'oni Karim va Hadisi sharif asosida shariat, aqida hamda ahkomlarini tartibga solgan fiqh olimlarining to'ng'ichidir. So'fi Olloyorni islomiy -irfoniy mazmundagi asarlari borligi bois Imom A'zamga qiyos etishadi.

Uning adabiy merosi va o'zbek adabiyotidagi an'analari bo'yicha ist'edodli adabiyotshunos olim va muddaris Inoyatullo Suvonqulov 1997 yili doktorlik dissertasiyasi yoqladi, o'nlab ilmiy maqolalar, risolalar nashr ettirdi. Professor Sh.Sirojiddinovning 2001 yili nashr qilingan "So'fi Olloyor ilohiyoti" asari ham bu mutafakkir shaxsining diniy-islomiy asarlaridagi axloqiy ma'rifiy qarashlari haqidadir.

Keyingi yillar taniqli adabiyotshunos olimlardan akademik B.Valixo'jaev, I.Haqqulov, Sayfiddin Rafiddinov, Zohid Rashid, Nilufar Olloyorova, Nodira Baratovanning maqola va tadqiqotlarida mutafakkir shoir merosining turli jihatlarini yoritildi.

¹ So'fi Olloyor.Maslakul muttaqin, Toshkent: Movarounnahr.2007. B-16.

² Inoyatullo Suvonqulov. So'fi Olloyor. Toshkent:Fan.1995-yil. B-13-28.Rashid Zohidov. So'fi Olloyor haqida nimalarni bilasiz? /SHarq yulduzi./1990. 12-son.Po'latjon domullo Qayumov. Tazkirai Qayumiy. 3 jildlik 1-jild. Toshkent.1968.B-61-62.

³ Orzibekov Rahnamonqul. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2006.B-70

⁴ Orzibekov Rahnamonqul. "O'zbek adabiyoti"tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2006.B-71

1.2. So'fi Olloyor – diniy – didaktik asarlar muallifi

So'fi Olloyor nafaqat shoir yoki tariqat shayxi, balki u zot yirik fiqh, shariat ilmlarining bilimdoni va targ'ibotchisidir. Barcha asarlari odamlarga haqiqiy islomni tushuntirish, dinu diyonatga boshlash, odob-axloqni o'rgatish va sof tasavvuf yo'lini tutishga qaratilgandir. Buxoroyi sharifning eng nufuzli Shayxlari tahsili va ta'sirida bo'lgan Olloyor o'n ikki yil o'tib, o'zi ham shayxlik unvoniga ko'tariladi, dinu diyonat rahnomalaridan biriga aylanadi. So'fi Olloyor o'sha yillarda birin-ketin diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi "Maslak ul-muttaqin" (Taqvodorlar maslagi) "Sabot ul o'jizin" (Oriflar saboti, najoti) "Murod ul-orifin" (Oriflar murodi), "Najot ut-tolibin" (Toliblar najoti) kabi asarlari bilan taniladi. Bu asarlarini o'qib So'fi Olloyorning islom tarixini, Qur'oni Karimni, Hadisi shariflarini, fiqh ilmini chuqur bilgan dinshunos olim hamda ularni badiiy so'z sa'nati orqali yuksak mahorat bilan tashviq etishga qodir shoir va adib darajasiga ko'tarilganligiga to'la qanoat hosil qilamiz.

Shu asarlari orqali u shayx va shoir sifatida musulmon ahli salafлари Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oniyydek hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ladi. Bu asarlarida So'fi Olloyor dunyoni islom nuri va tasavvuf timsollari ko'zgusida ko'radi, u orqali badiiy bir dunyo kashf etgandek bo'ladi. Ma'lumki, So'fi Olloyor va Boborahim Mashrab bir davrning mutaffakir so'z ustalaridir. Har ikkala shoir haqidagi qo'lyozma manbalarda, shuningdek, ularning o'z asarlari tarkibida biri so'fiy, ikkinchisi qalandar sifatida mashhur bo'lgan bu avliyosifat siymolarning uchrashganlari, muloqatda bo'lganliklariga doir lavhalar bor. Mashrab So'fi Olloyor bilan diydor ko'rishish orzusida uning tug'ilib o'sgan vatani Kattaqo'rg'on mavezeiga, keyinchalik esa So'fi Olloyorning G'uzordagi so'nggi yillar qo'nim joyi Vahshiyorda bo'lgan. "Devona Mashrab"da bu ikki buyuk zotning uchrashuviga oid naql va lavhalar keltiriladi: Alqissa, shoh Mashrab Qabodiyong'a keldilar. Eshoni So'fi Olloyor ham shunda erdilar. So'fi Olloyorga xabar yetdiki, shoh Mashrab keldilar. So'fi Olloyor xushnud bo'lib oldilarig'a peshvoz chiqdilar.

Ikkovlari bir-birlariga muloqatda bo'ldilar. Shoh Mashrab So'fi Olloyorning qo'llarini tutib, aydilar: "Ey Olloyor, Huzuri degan buzurg do'zaxga xushomad qilibdurlar. Siz Puli Sirotg'a xushomad qilibdursiz. Keling man sizni o'tkarib qo'yay". So'fi Olloyor aytdilar: "Ey Mashrab, putingizni orasig'a qarang". Shoh Mashrab qarasalar, yetti do'zax og'zini ochib turubdur. Shoh Mashrab do'zohlarni ko'rib aydilarki: "Ey so'fim, bu do'zaxlarni ko'rib muncha qo'rqarsiz? O'zini topqondin so'ng ani qo'lidin nima keladur? Himmatni baland tutung", – dedilar. Shoh Mashrab aytdilarki: "Ey so'fim, ikki qo'limni orasiga qarang". So'fi Olloyor shoh Mashrabni ikki qo'lini orasiga qarasalar, farishtalarni ko'rdilarki, ba'zilar qiyomda va ba'zilar ruku'da va ba'zilar sujutdda va ba'zi qu'udda va ba'zilar munojatda duo qilib turubdurlar. Shoh Mashrab aytdilar: "Ko'rdungizmu? Bu farishtalarni kecha-yu kunduz, bularga yemaku ichmak va uxlamak yo'qtur. Hamisha toat va ibodat qiladurlar. Alarning tilaklari shudurki, iloho Muhammad alayhissalomning ummatlarini yetti jannatga doxil qilgaysan. Shunday farishtalar sizning uchun toat va ibodat qilsalar, besh kunlik umringizga himmatingizni baland tuting", – deb, o'zlari "hu" deb, Balh shahrig'a ravona bo'ldilar.¹ Bu uchrashuvlar tasodifiy bo'lmagan, albatta. Har ikkala siymoning Haqqa intilishlari, visol orzulari bir xildir. Har ikkalalari ham davrning diniy rahnomalari, ustodlari darajasida ulkan e'tibor qozonishib, musulmon ummatlarini gunohlardan, noshar'iy harakatlardan saqlanishga da'vat etganlar. Biroq bu maqsadni Boborahim Mashrab asosan haqning o'ziga erishish, uning yo'lida riyozat chekishda ko'radi. Shariat va dinu islomning boshqa aqida va arkonlariga loqayd qaragandek bo'ladi. So'fi Olloyor esa Olloh taolo yaratgan jannatu do'zaxga ham, musulmonchilikning boshqa hamma farzu sunnatlariga ham e'tiqod qo'ygan va ularni kuchli targ'ib qilgan mutafakkirdir.

So'fi Olloyor islom dini qonun qoidalarini, tasavvuf ta'limoti mohiyatini, go'zal insoniy axloq mezonlarini yorituvchi bir qancha asarlar yaratgan. "Maslak ul muttaqin", "Maxzun ul

¹ Qissam Mashrab Toshkent: YOZuvchi.1992. B-154

mute'in" kabi asarlari shular jumlasidandir.

So'fi Olloyorning diniy-islomiy qarashlari Ahmad Yassaviy va Sulaymon Baqirg'oni ijodi bilan qiyosan o'rganilganda, ular ijodiga xos mushtarak jihatlar bilan farqli jihatlar ham ko'zga tashlanadi. So'fi Olloyor o'zbek adabiyotiga diniy-ilmiy yo'nalish olib kirgan muallifdir. Chunki uning asarlarida ta'riflangan islom arkonlari va ahkomlari islom dinini o'rganuvchilar uchun muhim qo'llanma, darslik vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan edi. Uning asarlari orqali Ollohga bo'lgan e'tiqodimiz kuchayadi. O'z qarashlarini, dinu shariatning amaliy shartlarini obrazli, jonli va sodda tilda tasvirlab bergan So'fi Olloyorning asarlari maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitib kelingan. O'sha davrlarda har bir solih xonadonining Qur'oni Karimdan keyingi doimiy saboq kitobiga aylangan. Mustaqilligimiz tufayli, So'fi Olloyor ijodiga bo'lgan qiziqishimiz tufayli shoirning asarlari yana qayta nashr qilinib, xalqqa taqdim etilmoqda. So'nggi yillarda So'fi Olloyor tavallud topib, ancha yillar yashagan maskanlarda uning sharafiga ilmiy anjumanlar o'tkazildi, xotira, yodgorlik maydonlari ochildi, yodgorlik haykallari, marmar lavhalar o'rnatildi. So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an'analarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan iste'dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir. Uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining nodir xazinasini.

II – BOB SO'FI OLLOYOR IJODIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI

2.1. “Sabot ul ojizin” asarining ma'rifiy yo'nalishi

So'fi Olloyor islom dini qonun –qoidalarini, tasavvuf ta'limoti mohiyatini, go'zal insoniy axloq mezonlarini yorituvchi bir qancha asarlar yaratgan. “Sabot ul -ojizin”, “Maslak ul -muttaqin”, “Murod ul -orifin” kabi asarlari jular jumlasidandir. So'fi Olloyorning eng mashhur asari “Sabot ul ojizin”dir. U Saudiya Arabistoni, Pokiston, Turkiya kabi ko'p chet mamlakatlarda ham chop etilgan. Ikki marta sharh yozilgan. Bu asar dunyo xalqlarida katta qiziqish uyg'otgan. “Sabot ul ojizin” madaniy merosimizda muhim o'rin tutgan diniy-axloqiy va didaktik asar. U uzoq yillar XX asr boshlarigacha O'rta Osiyo maktab, madrasalarida darslik sifatida qo'llanib kelingan.¹ So'fi Olloyorning ma'naviy ilohiynoma asarlari ichida avval forsiy keyin o'zi tomonidan turkiy tilda ham nazm silkiga tushgan “Sabot ul ojizin” masnaviysi alohida ahamiyatga egadir. Dastlab fors-tojik tilida yaratilgan bu asarni turkiygo'y qavmlar ehtiyoji va iltimosiga binoan shoirning o'zi tomonidan turkiy tilga she'riy uslubda tarjima qilinishi asarga bo'lgan qiziqish va talab qanchalik ko'p bo'lganligini ko'rsatadi. Asar hajmi 12000 baytdan ortiq. U katta –kichik bir qancha boblarga ajratilgan.

“Sabot ul ojizin” asarining tuzilishi ham o'ziga xos. Unda yaxlit sujet chizig'i yo'q. Ammo, fikr–g'oyalarni umumlashtirib, birlashtirib turuvchi resha bor. U komil inson masalasidir. Asardagi barcha hikoyatlar, mav'izalar, fikrlar kamolotoning mohiyati, shartlari, belgilarini yoritishga qaratilgan. Shuning uchun ham bu asarni chanqoq ma'naviyatimizga axloqiy qobusnoma, axloqiy qobus deb baholashimiz mumkin. Bu asarda mutafakkir shoir Qur'oni Karim oyatlarini, Hadisi sharif hikmatlarini musulmon ummati uchun farz va sunnat

¹ Adizova Iqboly. O'zbek mutoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan.2009.B-95

bo'lgan axloq normalarini masnaviy shaklda ifodalagan. Shu tariqa, sabotga muhtoj o'jizlarga to'g'ri yo'lni-najot yo'lini ko'rsatib bergan. Asarda insofu adolat, tinchlik ulug'lanadi, zulm va shafqatsizlik, xudbinlik, nopoklik, nafs - havoga berilish shariat nomidan qoralanadi, mehr va muruvvat, pokko'ngillilik, hikmat va saxovat, xilvat va uzlat gashti, shirintillik, kamtarlik fazilatlarini madh etiladi. Ularning ta'rif va tavsiflari uchun diniy muqaddas kitoblardan, qanchadan-qancha hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, mav'izalari, talab va nasihatlar, pir va shogird munosabatlari asar kompozitsion qurilishini tashkil qiladi. "Sabot ul o'jizin" asari shoir yashagan zamondan boshlab, musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan, maktab va madrasalarda o'qitilgan. O'quvchilar savodxonlikning ma'lum darajasidan keyin ushbu kitob mutoalasiga kirishishgan. XX asarning 1-choragigacha esa o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari "Sabot ul o'jizin" dan dars olishgan. Fikrimizning tasdig'i sifatida "Sho'ro" jurnalining 1917 yil 7-sonida bosilgan quyidagi xabarni keltiramiz: Usuli qadim ila o'qigan maktabalarda ham o'quvchi bolalarning hech biri "Sabot ul o'jizin" o'qimay qolmagan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ul vaqtda devorga osib qo'yilgan "programma" degan narsa bo'lmas-da, "...Fazoilush shuhur" o'qigach, "Sabot ul o'jizin"ni o'qimay o'tish mumkin emasdek edi. "Sabot ul o'jizin"ning sharhi "Risolai Aziza" o'qitilgan edi. Lekin o'qish bilan anglash orasida juda katta farq bo'lganidek, kitobning adabiy foydasi yashirin qolgan..."¹

Haqiqatan ham, ifoda uslubi sodda, ohangi turkona, badiiy saviyasi yuksak "Sabot ul o'jizin"ni to'la anglash nafaqat arab, fors va qadim turkiy tildan xabardor bo'lish, balki aqida fiqh, tafsir, hadis, tarix, siyrat va adab ilmlari bo'yicha ham muayyan tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etadi. "Sabot ul o'jizin" o'ziga xos ilohiy noma, din sharoit ahkomlaridan bahs etuvchi axloq va pand-nasihat kitobi deyish mumkin. U inson ma'naviy ruhiy Sabotini ulug'lovchi, inson aql va Sabotga tayanganda har qanday oshiqlik kuch va matonatga aylanishini tasdiqlovchi asardir. Bu asarga bir necha sharhlar bitilgan. Biri Rossiyaning bulg'or qavmidan bo'lgan Tojiddin Yo'lchig'il qalamiga mansubdir. 1796-1797 yili yozilgan bu risola XIX asrdayoq Qozon va Istambulda nashr qilingan. Unda "Sabot ul o'jizin" dagi har bir masnaviy baytning mazmuni, sodda sharhi berilgan. Risolada islom dunyosining ba'zi buyuk kishilari haqida lavhalar, hikoyalar, qissalar ham keltiriladi. Shunday sharhlardan yana biri Ubaydullo ibn Islomquli qalamiga mansub "Sharhi sufiya" kitobidir. Unda ham "So'fi Olloyor" merosiga oid ilohiy jihatlarning mag'zini, mohiyatini anglab olishga taalluqli jihatlari mavjud. Demak, tatar olimi Tojiddin Yolchiqul "Sabot ul o'jizin"ga "Risolai Aziza" degan sharq bitsa, Said Habibulloh ibn Yahyoxon tomonidan Pokistonda chop etilgan "Hidoyatut-tolibin sharhi, "Sabot ul o'jizin" nomli kitob ham e'tiborga molikdir.

So'fi Olloyor "Sabot ul o'jizin"ni yaratishda ikki buyuk chashmadan oziq oldi.

Birinchisi, islom ta'limoti va uning muqaddas kitobi Qur'ondagi ezgulik, hadislar, payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom, boshqa din tasavvuf nomoyondalarining ibratli hayot yo'li. Ikkinchisi, adabiy ana'nalar bo'lib, islom ta'limoti va uning maqsad- mohiyatini targ'ib qilgan badiiy asarlar. Bu o'rinda, ayniqsa, sulton ul orifin shayx Ahmad Yassaviy, sulaymon Baqirg'oni, Nosiriddin Rabg'uziy, Navoiy, Bobur asarlarining ta'siri sezilarlidir.

Muallifning o'zi ham "Sabot ul o'jizin" islom dini asoslarini o'rganuvchi eng muhim fan bo'lgan aqida masalalarining turkiydagi sharhi ekanligini ta'kidlaydi.

Yozildi forsiy til birla maktub,

Aqidotu furu' qurbi mahbub.

Anikim ko'rdilar turkiy yoronlar,

Dedilar: "Gar duo qilsa eranlar

Bitilsa turki til birla aqiyda,

Ko'ngillar bo'lsa andin oramiyda."¹

¹ .Mahbub Jamol Oqchurun "Sabot ul-ojizin" kitobi. //Sho'ro//.1917.7-son.

¹ So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Sa'nat jurnali.2007. B-14

“Sabot ul ojizin” aqida (e’tiqod, ixlos, ishonch) haqidagi kitob ekanligini asarining boshqa o’rinlarida ham eslatib o’tadi va o’z muxlislarini, toliblarini unga sidqidildan rioya qilishiga da’vat etadi:

Aqiyda so’zlarini qildim isbot,
Anga qo’ydim “Sabot ul -ojizin”ot

O’zimdan xastalar bo’lg’aymu deb shod,
Nasoyihdin ham andak ayladim yod.

Nasihat tinglamas dil saxta mahjub,
Ko’karmas tosha yomg’ur yog’sa ham ko’p.

Aqiyda bilmagan shaytona elddur.
Agar ming yil amal deb qilsa, eldur.

Uyalma ma’rifatni o’rganurdin,
Tonur joying bo’lur, qolsang tanurdin.¹

So’fi Olloyorning diniy ma’rifiv mazmundagi “Sabot ul ojizin ” asari avliyo hamda payg’ambarlar haqidagi hikoyai va rivoyatlar, kamtarlik, rostgo’ylik, halollik, adolat, saxovat, ma’rifat, musulmonchilik, e’tiqod, imonga bag’ishlagan alohida-alohida masnaviy bandlar, munajat va ruboyilar asar qurilmasini tashkil etadi. Shoir asarda kibr-havoga berilishni, manmanlikni keskin qoralab, riyokorlik, pastkashlik ana shulardan kelib chiqishini eslatadi. Komil bo’lay desang, o’zingni kamtar tut! Daraxtning mevasi qanchalik ko’p bo’lsa, shunchalik egilib turishdan ibrat ol, deydi u. Masalan:

Hamisha bandadandur zor qilmoq,
Na haddur, boshini yuqori qilmoq.

Tavoz’ilik bo’lib, tutgil o’zing kam,
Shajarkim bo’lsa mevalik, bo’lur xam.¹

So’fi Olloyorning “Sabot ul ojizin” asari krill yozuvida 1991 yil Rashid Zohidov, Hoji Po’lat qori, M.Hasaniy, M.Qosimovlar tomonidan nashrga tayyorlangan. Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishdagi misol qilib keltirilgan baytlarni filologiya fanlari nomzodi Rashid Zohidov tomonidan 2007 yilda nashrga tayyorlangan “Sabot ul ojizin” (Ojizlar Saboti) kitobidan oldik. Kitob 157 betdan iborat bo’lib, Rashid Zohidov tomonidan yozilgan so’zboshi bilan boshlanadi. Asar esa an’anaviy hamdu sano, hazrat Rasululloh sallollohu alayhivasallam sifatlarining bayoni, kitobning yozilishi sababi kabilar bilan boshlanib, bir necha ibratli hikoyatlar, komil inson sifatleri bayoni va Eshon So’fining farzandlarga nasihati, xotimatul kitobidan so’ng So’fi Olloyorning munojati bilan yakunlanadi. Asarda beshta o’rinda munajat keltirilgan bo’lib, har biri o’ziga xos ma’naviy ozuqa va badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan ahamiyatlidir. Asar So’fi Olloyorning quyidagi so’zlari bilan yakun topadi:

Xoliqo, umr ayladim foniy bilan,
Emdi bandang zor aylar joni bilan.

Garchi Olloyor erur zoru zabun,
Jonni ol nuri iymoni bilan.²

¹ So’fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Sa’nat jurnali.2007. B-14

¹ So’fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent:Sa’nat jurnali.2007. B-92

² So’fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: sa’nat jurnali.2007..B-152.

Misollarda ham ko'rinib turibdiki, So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" asari ma'naviy ma'rifat beruvchi asar. Asarda keltirilgan bir qancha hikoyat va mav'izalar shoir dunyoqarashi, shaxsiyati va ist'edodi borasidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Asar bugungi kun o'quvchisi ko'nglini ham uyg'oqlikka, tiriklikka, bedorlikka, tozalikka boshlovchi buyuk kuchga ega. Bu asar haqida o'zining ilmiy qarashlarini bayon etgan Iqboloy Adizova "Sabot ul ojizin" chuqur g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan badiiy balog'atning nodir namunasi hamda insoniyatni g'aflatdan ogohlantiruvchi va uni engish sir-sinoatidan xabardor etuvchi asardir",¹ - deb baholaydi. Haqiqatan ham, asarning qiymati bugungi yoshlarimiz axloqi, ma'naviy saviyasi rivoji uchun ahamiyatlidir.

2.2. "Maslak ul-muttaqin" asaridagi axloqiy qarashlar

So'fi Olloyorning diniy- ma'rifiy asarlaridan biri "Maslak ul-muttaqin" fors tilida masnaviy usulida yozilgan. Asar hajmi 1200 baytdan ortiq. Bu asar ham "Sabot ul ojizin" asari kabi So'fi Olloyor ijodidagina emas, umuman, XVII asrdan so'nggi islom olamida o'ziga xos ma'naviyat dasturi vazifasini o'tab kelgan. Shoir asarda, birinchi navbatda, odamlarga iymon tushunchasining diniy-falsafiy mohiyatini tushuntirish; ikkinchidan, hidoyat haqidagi kitoblarning barchasi arab tilida bo'lib, avom tushunadigan, uning nazm qilinishiga qulay forsiy nusxasining yo'qligi e'tiborga olinib, ommabop asar yaratish maqsadi borligi haqida bayon etadi. "Maslak ul muttaqin" imon va aqida tashviqotiga bag'ishlanaganligi tufayli "Sabot ul ojizin" bilan g'oyaviy -fikriy mushtarak jihatlari ko'p. Biroq "Sabot ul ojizin" forsiy tilda bitilgan shu asarning o'zbekcha tarjimasi emas. "Sabot ul ojizin" dastlab fors tilida yozilgan va adibning o'zi asarni turkiy tilga tarjima qilgan. "Maslak ul-muttaqin"da "Sabot ul ojizinda" qalamga olinmagan, zikr etilmagan shariat aqidalari, imon-e'tiqod, tohorat, nomoz, ro'za va boshqalarga keng o'rin ajratilgan. Asar kompozitsiyasida muallif, xuddi "Sabot ul ojizin" asarida uchratganimizdek, an'naviy hikoyat, munojat, masal va boshqa tasvirlardan unumli foydalangan.

¹ Adizova Iqboloy. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan. 2009. B-96.

Bularni masnaviyda bayon etilayotgan biror diniy aqida yoki shariat qoidalarini mustahkamlash uchun keltiradi. “Maslak ul-muttaqin” ni yozishda muallif yuzdan ortiq fatvo va taqvo jihati ko’rsatib berilgan. Shuning uchun ham kitobda “Fatvo va taqvo” bayon etilganligi ta’kidlangan. Kitobning “Maslak ul muttaqin” deb nomlanishi (Taqvodorlar maslagi) bejiz emas, chunki bu asar fiqh, ya’ni shariat qoidalari, e’tiqod va axloq kabi masalalardan bahs yuritadi.

“ Maslak ul-muttaqin” aruzning hafif bahriga mansub foilotun fa’lon (-V--V-V- --) vaznidan yozilgan. Shoir “Maslak ul -muttaqin”da asar yozilgan yilini quyidagi satrlarda ko’rsatib o’tgan:

Shukrho bo Xudo ba’zi salot,
Fitr, qurbonivu kitobi zakot.

Dar hazoru sadu duvozdah iyn,
Shud ado muchmalan alat-ta’yin.

Shukrho bo Xudoyi poyanda.
Birasondi bamatlubi banda.

Gar naboshad inoyat yori,
Man kiyu kardonani chunin kori.

(Allohgga shukrlar bo’lsinki, namoz, fitr, qurbonlik, zakot haqidagi kitoblar xulosa qilinib, 1112 hijriy qamariy (1700-1701 milodiy) yigirma to’rtinchi muharram oyi, dushanba kuni “Maslak ul-muttaqin” kitobi ham yozib tugallandi. Boqiy Xudoga shukrlar bo’lsinki, kaminani maqsadiga yetkazdi. Agar uning inoyati yor bo’lmaganda edi, men kimmanki, bunday ishni qilardim?¹

Tarjimon Qo’zijo’ja Hofizxo’ja o’g’li So’fi Olloyorning “Maslak ul-muttaqin” asarini fors tilidan turkiy tilga “ Hidoyat ul- muttaqin” nomi ostida tarjima qiladi. Bu kitob 2007 yilda Toshkentda “Movarounnahr” nashriyotida chop etildi. Kitobni O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot instituti dotsenti Sayfiddin Sayfulloh va Akram Dehqonlar nashrga tayyorlashgan. Bu kitob 417 sahifadan iborat bo’lib, O’zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov so’zboshisi va Sayfiddin Sayfulloh, Akram Dehqonlarning “ Maslak ul- muttaqin asari, uning tarjimasi haqidagi ilmiy qarashlari bilan boshlangan. Shoirning falsafiy mushohadalari, olam va jamiyatga munosabati asarning hamd qismida ancha teran fikrlar bilan ifodalangan 60 baytda aks etgan.

Allohnin g qahridan qo’rqib, bepayon rahmatiga umid bog’lagan shoir Muhammad alayhissalomga ummat, choriyorlarni do’st tutuvchi, ahli sunnat va jamoat toifasidan ekanligiga shukr qiladi, inson va musulmon bo’lib yaratilganini mamnuniyat bilan eslab o’tadi:

Ba inoyati hud musulmon kard,
Chinsi digar nokard inson kard.

Dod moro ba lutfi xesh maqom,
Dar miyoni viloyati islom¹,

(O’z inoyati bilan bizni musulmon qildi. Boshqa jinsdan emas, inson jinsidan qildi. O’z lutfi bilan bizga islom viloyatining ichidan joy berdi.)

Imomi A’zam (hanafiy) mazhabida bo’lgan shoir biror shar’iy masalani avvalo ana shu mazhab doirasida hal qiladi. Ayrim shar’iy hukmlarni bayon etayotib, o’rni-o’rni bilan kitobxonga nasihat etib, uni tavba qilishiga, ilm o’rganishga, shariat amrini e’tiqod bilan

¹ So’fi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. Toshkent. Mavarounnahr 2007. Dar miyoni viloyati islom. B-7

¹ So’fi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. Toshkent. Mavarounnahr 2007. B - 12

bajarilishiga, ruhoniy pir topishga, dunyoning foniyligini angalashga, xos kishilar va mo'minlarga yaxshilik qilishga, yomonlardan yiroq yurishga da'vat qiladi. Demak, "Maslak ul muttaqin" ham "Sabot ul ojizin" kabi asosan bir maqsadni, komil insonni, xudojo'y, solih musulmonni tarbiyalashga mo'ljallangan asardir.

2.3. "Murod ul –orifin" asarida tasavvuf ilmi targ'iboti

So'fi Olloyorning "Murod ul orifin" asari esa fors tilida masnaviy usulida yozilgan. Uning muqaddima sahifalarida "faqiru haqir, tavakkul eranlarining xoki poyi Olloyor ibn Ollohquli do'stlar maslahati bilan din muhiblari e'tiqodga muvofiq tasavvuf g'oyalari va to'g'ri yo'l haqida kitob bitilishini iltimos qiladilar",- deyiladi.¹ Kitob 15 fasldan iborat. Unda tasavvuf ilmlari, tavhid, dunyo va Ollohn tanish, fano va baqo, maqsadga va muhabbatga erishtiradigan vositalar, islom olamining o'ttizga yaqin mashhur ulamolari va buyuk So'fiylarning risolalariga suyangan holda tushuntirilgan. Bu asarda so'fiylik yo'liga kirgan orif kishilarning fazilatlarini, e'tiqodlari, tariqatning bosqichlari, aqidalari va talablari xususida fikr yuritiladi. Jumladan, shoir "So'fi" istilohining ma'nolariga to'xtalib: "Ularni shuning uchun ham "So'fiy" deb ataydilarki, ularning ko'ngillaridagi sirlari sof va pokizadir. O'z sirlarini o'zgalardan yashiradilar, ular Haqdan o'zgaga e'tibori yo'q. So'fi qanday ishni, xizmatni bajarmasin qalloblikdan yiroq; xizmatini tama' qilmaydi, balki o'zini qusurli hisoblaydi, havolanmaydi; ular o'zlarini nafs va shahvatdan tiyadilar" – deb izohlaydi.

So'fi Olloyorning diniy- ma'rifiv asarlari orqali Olloh taoloning ma'rifati, tavhidi, sifatleri, imon farishtalari, qabr azobi, qiyomat kuni, payg'ambarlarimiz shafoti, umrning foniyligi, avliyolar karomati, piru komillar xosiyati, rizo va sabr, ta'ma, dunyo hiylalaridan qochish, kibr-havoli bo'lmaslik, muloyim so'zlik, insoniylik, mehr-muhabbat, xudodan umidvorlik kabi komil inson qiyofasini belgilovchi aqida afzalliklarini bilishimiz mumkin.

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy qarashlarini falsafiy badiiy – tashviqiy yo'sinda davom ettirib, bir qancha salmoqli masnaviy asarlar yaratdi. So'fi Olloyorning diniy ma'rifiv shoir, deb baholash mumkin. Uning asabiy merosi va o'zbek adabiyotidagi an'analari bo'yicha ist'edodli adabiyotshunos olim va muddaris Inoyatullo Suvonqulov 1997 yili doktorlik dissertasiyasi yoqladi, o'nlab ilmiy maqolalar, risolalar nashr ettirdi. Professor Sh.Sirojiddinovning 2001 yili nashr qilingan "So'fi Olloyor ilohiyoti" asari ham bu mutafakkir shaxsning diniy-islomiy asarlaridagi axloqiy ma'rifiv qarashlari haqidadir.

Keyingi yillar taniqli adabiyotshunos olimlardan akademik B.Valixo'jaev, I.Haqqulov, R.Sayfiddinov, Zohid Rashid, Nilufar Olloyorova, Nodira Baratovanning maqola va tadqiqotlarida mutaffakir shoir merosining turli jihatlari yoritildi.

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy irfoniy adabiyot ana'nalarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan ite'dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir.

So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" asaridagi diniy-islomiy qarashlar ikki jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etishi lozimligi ko'zga tashlanadi. Birinchidan, u diniy ta'limotni targ'ib, tashviq qiladi; xudojo'y kishilarning Ollohga bo'lgan e'tiqodini kuchaytiradi, dinu sharoitning amaliy shartlarini o'rganishga ko'mak beradi. Ikkinchidan, u badiiy ijod mahsuli bo'lib, shoirning iste'dodi qirralarini ko'rsatadi.

¹ Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O'zbekiston. 2006. B-81.

Buning uchun So'fi Olloyor musulmon ummatlariga ta'sir o'tkazishining ikki juda maqbul yo'lini tanladi. Birinchisi, jonli, obrazli, sodda tilda o'z aqidalarini tushuntirish; ikkinchisi, Olloh va shariat yo'lidan chekingan, imoni zaif shaxslarni oxirat, qiyomat azoblari bilan qo'rqitish, shunday azoblar borligidan ojiz, imoni sust bandalarni ogohlantirish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun musulmon banadasi avval o'z gunohlaridan poklanishi, so'ng ma'rifat va axloq tarbiyasini olishi, komillika intilishi kerak. Shoir yaxshi xulqli, diyonatli, imonli, sabr-qanoatli, ko'ngli pok insongina Olloh fayzidan bahramand bo'lajagini ta'kidlaydi:

Ko'ngul haq fayziga bo'lsun desang chok,
Ki avval martaba xulqinngni qil pok.¹

Demak, "Sabot ul ojizin" g'aflat uyqusida bo'lgan avom xalqni tavba qilishga, rasululloh sunnatlariga qaytishga chaqirish; ishq, e'tiqod yo'liga, tariqatga qadam qo'ygan musulmon bandasi uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar, tariqat odobiga bag'ishlanagan asardir. Shu asosda u tannazzulga yuz tutgan ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, omma mafkurasini nosha'riy, yot odat va unsurlardan tozalashga kirishadi. Shu taxlit, "Sabot ul ojizin" jamiyat a'zolarida e'tiqodni mustahkamlash dasturi vazifasini bajaradi.

So'fi Olloyorning yuqorida tahlil doirasiga tortilgan badiiy asarlari barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Adib ijodidagi ma'naviy –ma'rifiy g'oyalar, axloqiy qarashlar bugungi kunda ham o'z qimmatiga ega.

III .bob. So'fi Olloyor ijodida obraz, g'oya va badiiyat.

3.1. So'fi Olloyor ijodida komil inson timsoli.

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an'alarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan ite'dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkurdir.

So'fi Olloyor umri davomida yaratgan asarlari, ibratli pandu-nasihatlar bo'is o'zbek xalqi qalbidan chuqur joy olgan. Uning asarlari o'z davrida ham sevib mutolaa qilingan. O'zbek adabiyotining zabardast siymolaridan biri, zullisanoy shoir, fiqh ilmining sohibi, naqshbandiya tariqatining yirik nomoyondasi So'fi Olloyor qaysi bir masalani yoritishga murojaat qilmasin, albatta, insonni oxirat hisob-kitobidan ogohlantirib turadi. Halol yashashga, axloqni tuzatishga,

¹ .So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent. Sa'nat jurnali.2004.B-111

ilmga amal qilishga, bid'at-xurofatdan yiroq bo'lishga da'vat etadi. Afsuski, sho'ro darida ijodi qatog'on qilingan shoirlarimiz qatorida So'fi Olloyor ijodi ham diniy-mistik adabiyot tamg'asi ostida ta'qiqlanib kelindi. 1980 yil Toshkentda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan Vohid Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darslik kitobida ham So'fi Olloyor yashagan davr adabiyotini ikki yo'nalishga ajratib o'rganilgani kuzatiladi. Birinchisi progressiv adabiyot, ikkinchisi reaksion feodal-klerikal adabiyot vakillari. Jumladan, So'fi Olloyor reaksion feodal-klerikal adabiyot vakili deb talqin etiladi. So'fi Olloyor ijodidagi diniy qarashlar mohiyati davr talabi bilan izohlanadi. So'fi Olloyor ijodiga xolis baho berish imkoni yo'qligi sabab Vohid Abdullayev shoir ijodining mazmun va mohiyatini yoritishda o'zgacha fikr bildiradi. Masalan, So'fi Olloyor asarlari Toshkent, Qozon, Boku va boshqa shaharlarda ham qayta-qayta nashr qilinib, xalqqa manzur bo'lganligi, lekin bu asarlar xalqni har qanday jabr-zulmga sabr bilan javob berishi u ekspluatator sinflarining qiynoqlariga ko'nib yashash va buning evaziga oxiratda jannatdan joy olishlariga ishontirishdan boshqa narsa emas deb, sayoz fikrlar bildiriladi. So'fi Olloyor ijodidagi didaktik mazmun va komil inson masalasi talqini haqida ma'lumot berilmaydi. Shukrlar bo'lsinkim, O'zbekiston mustaqil bo'lgach, ajdodlari yaratgan katta bir adabiy maktabdan xabardor bo'lishi va haqiqiy fikrlar, dunyoqarashlar majmuini xolis baholashga muvassar bo'ldi. Avlodlarga hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib beruvchi qimmatbaho asarlardan bahramand bo'lish imkoni tug'ildi. So'fi Olloyor ijodi yoshlarni komillikka chorlaydi, shu bois mustaqilligimiz bergan imkoniyatlardan foydalanib, shoir ijodidagi noyob qirralarni yoritish, uning asarlari bilan xalqimizning qalb ko'zini ochish, yosh avlodni tarbiyalashda uning ijodidan bahra olishga keng yo'l ochildi.

Adabiyotshunos olim Inoyatulla Suvonqulov 1994 yili So'fi Olloyorning 80 ga yaqin lirik she'rlarini topdi. G'azal, muxammas, ruboyi va tarixlardan iborat bu she'rlar yaqin yillarga qadar ilm-ijod ahliga ma'lum emas edi. Bu she'rlar XIX asrning II –yarmi XX-asrning boshlarida G'allarolda yashab, ijod etgan shoir Ubaydulla Alamkashda saqlanib qolgan katta bir bayoz tarkibida bo'lgan. Alamkashning o'zi So'fi Olloyorning 18 ta so'fiyona g'azaliga muxammaslar ham bog'lagan ekan. "Bayozi Alamkash" deb nomlanishdan bilish mumkinki, bayozni, shoirning o'zi tuzgan¹.

Shoirning lirik asarlaridagi hikmat suvlari bilan yo'g'rilgan didaktik she'rlari o'quvchiga ma'rifat bag'ishlaydi. Uning o'z farzandiga nasihat tarzida yozgan she'ri, g'azallari, ruboyilari shunday mazmunga ega.

Shoirning:

Ey xush ul umre, ki o'tsa bir necha shaydo bilan,
Tanlari xalq ichra bo'lsa, dillari Olloh bilan²

bayti ham shoirning ikki dunyoga –ham foni, ham boqiy dunyoga umid bilan qaraganligini ko'rsatadi. Bu bayt Xoja Bohovuddin Naqshband ta'limotida ilgari surilgan "Dil ba yoru dast ba kor" g'oyalarga o'xshashdir.

Shoirning so'fiyona-didaktik she'rlari ijtimoiy fikr-g'oyalardan xoli emas. Mamlakatda yuz bergan parokandalik, uch xonlik bedodliklari hukm surgan davrlardagi xalqning og'ir ahvoli yoritilgan she'rlarida insonlarni nafsu havoga berilib, bir-birlari bilan qir-pichoq bo'lmasliklari haqida o'z qarashlarini bayon etadi:

Saltanat birla bo'lib, nafsu havoni ushlabon,
Har g'aribu xastag'a bedodlik qilmoq arzimaz.

Do'stlar, bu bevafo dunyoda molu mulk uchun,
Bir-biringni og'ritib, noshod qilmoq arzimaz.

¹ Orzibekov Rahmonqul. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston. 2006. 81-bet.

² Orzibekov Rahmonqul. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston. 2006. 83-bet.

Mansabu dunyo uchun ahli hukumat oldida,
Qo'l qovushtirib turubon, dod qilmoq, arzimas.

Turku tojik o'zbeku sahroyilarni mol uchun,
Kecha-yu kunduz urub, noshad qilmoq arzimas.¹

So'fi Olloyorning keyingi yillarda Ubaydulla Alamkash bayozi va boshqa manbalarda saqlanib kelgan o'zbek va fors-tojik tilidagi g'azallari, muxammaslari, she'riy maktublari "Sabot ul -ojizin"da keltirilgan hikmatli baytlari, fardlari, ruboiylari, munojatlari professor Inoyatulla Suvonqulov tayyorlagan "Ko'zing ibrat bila och" nomida maxsus so'zboshi bilan kitob holida nashr etildi. Ilohiyot olimi, mutafakkir shoir So'fi Olloyorning ulkan merosi hozirgi kunda ham katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Ilm-ijod ahllari uning ikki tildagi diniy-falsafiy asarlarini tadqiq qilish va keng kitobxonlar ommasiga yetkazishdek sharaflari ishini davom ettirmoqdalar. Bizning bu kichik tadqiqotimizda ham So'fi Olloyor ijodiga nazar solish borasida shoirning komil inson tarbiyasidagi beqiyos o'rnini, uning dunyoqarashini belgilab beruvchi hikmatli so'zlar tahlili o'z ifodasini topgan.

So'fi Olloyorning "Sabotul-ujizin"asari komil inson tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Asarda insofu adolat, tinchlik ulug'lanadi, zulm shafqatsizlik, xudbinlik, nopoklik, nafs-havoga berilishi shariat nomidan qoralanadi; mehr-muruvvat, oqko'ngillik, himmat va saxovat, kamtarlik fazilatlarini madh etiladi. "Sabot ul-ujizin" asarlaridagi voqealar yaxlit syujet chizig'i asosiga qurilmagan bo'lsa ham ularni birlashtirib turuvchi bir g'oya bor. SHoir bu asarda komil inson masalasiga urg'u beradi. Asardagi barcha hikoyatlar, mav'izalar, fikrlar kamolotning mohiyati, shartlari, belgilarini yoritishga qaratilgan. So'fi Olloyor musulmon ummatlariga komillik sirini ochib berish uchun sodda tilda o'z aqidalarini tushuntiradi. Komillik sari tashlangan birinchi qadam: musulmon bandasi avval o'z gunohlaridan poklanishi, so'ng ma'rifat va axloq tarbiyasini olishi, komillik sari intilish kerak. SHoir yaxshi xulqli, diyonatli, iymonli, sabr qanoatli, ko'ngli -dili pok insongina Olloh fayzidan bahramand bo'lajagini ta'kidlaydi:

Ko'ngil Haq fayziga bo'lsun desang chok,
Ki avval martaba xulqingni qil pok.¹

So'fi Olloyor komil inson Ollohnin tanishi, Olloh taoloning birligi, har bir rizq Olloh tomonidan berilishi va iymonni sog'lom tutish lozimligini ta'kidlaydi.

Kel ey obid, o'zingni aylag'il xok,
Haromu shubhadin xalqingni qil pok.

Ochiq qo'lli, kushoda yuzli bo'lg'il,
Muruvatli, muloyim so'zli bo'lg'il.

Musulmon o'g'lig'a yaxshi qiliq qil,
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil².

So'fi Olloyor islom dini qonun-qoidalarini, tasavvuf ta'limoti mahiyatini, komil insonning axloq mezonlarini yorituvchi bir qancha asarlar muallifi. "Maslak ul-muttaqin", "Sabot ul ojizin", "Murod ul orifin", "Maxzan ul-mute'in" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ilohiyotchi shoir So'fi Olloyor Olloh taoloning ma'rifati, tavhidi, sifatleri, iymon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, payg'ambarimiz shafoti, umrning foniyligi, avliyolar karomati, piru komillar xosiyati, rizo va sabr, ta'ma, dunyo hiylalaridan qochish, kibr-havoli bo'lmaslik, muloyim so'zlilik, insoniylik, mehr-muruvvatli bo'lish kabi komil inson qiyofasini belgilovchi aqida afzalliklari haqida sodda, xalqona tilda, shoirona bayon etadi.

¹ Suvonqulov Inoyatilla. Ko'zing ibrat bila och. Samarqand. 2002. 22-bet.

¹ So'fi Olloyor. Sabot ul ojizin. Toshkent. San'at jurnali. 2007. 98-bet.

² So'fi Olloyor. Sabot ul ojizin. Toshkent. San'at jurnali. 2007. 104-bet

So'fi Olloyor ijodi, axloqiy-ta'limiy qarashlari Ahmad Yassaviy va Sulaymon Bayirg'oniy ijodi bilan qiyosan o'rganilganda, ular ijodiga xos mushtaraklik nafsni jilovlash, ta'ma va kibr-havodan yiroq bo'lish haqidagi komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tasvirlar bo'lsa, farqli jihatlar ham ko'zga tashlanadi: So'fi Olloyor o'zbek adabiyotiga diniy ilmiy yo'nalish olib kirdi. Uning kitoblarida ta'riflangan islom arkonlari va ahkomlari islom dinini o'rganuvchilar uchun muhim qo'llanma, darslik vazifasini o'tadi.

So'fi Olloyor ijodi ikki jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, uning asarlari diniy ta'limotni targ'ib, tashviq etishda; xudojo'y kishilarning Ollohga bo'lgan e'tiqodini kuchaytirishda; dinu shariatning amaliy shartlarini o'rganishda ko'mak beradi. Ikkinchidan, uning asarlari badiiy ijod mahsuli bo'lib, jonli, obrazli, sodda tilda o'z aqidalarini tushuntirishga harakat qilgan shoir iste'dodining o'ziga xos qirralarini namoyon etadi.

So'fi Olloyor ijodida ilohiy muhabbat ezgulikka, Xaq va haqiqatga bo'lgan ishq kuchli ekanini ko'zatdik. Komil inson, avvalo, o'zini –o'zi poklashi, haqiqatni idrok etishi uchun tana ham, niyat ham, qalb ham, fikru andisha ham, fe'lu xulq ham pok bo'lishini angladik.

3.2. So'fi Olloyor ijodida g'oya va badiiyat mutanosibligi

So'fi Olloyor o'zbek adabiyotiga diniy-ilmiy yo'nalish olib kirgan muallifdir. Uning asarlarida ta'riflangan islom arkonlari va ahkomlari islom dinini o'rganuvchilar uchun muhim qo'llanma, darslik vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan edi. Ilohiyotchi shoir Olloh ta'oloning ma'rifati, tavhidi sifatleri, imon farishtalar, qabr azobi, qiyomat, payg'ambarimiz shifoati, umrning foniyligi avliyolar karomati, piru komillar xosiyati rizo va sabr, dunyo hiylalaridan qochish, kibr-havoli bo'lmaslik, muloyim so'zlilik, insoniylik, mehr muruvvat, xudodan umidvorlik, tavo'zelik kabi komil inson qiyofasini belgilovchi xislatlarni sodda, tushunarli tilda shoirona bayon etdi. So'fi Olloyor asarlari ikki jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, uning asarlari diniy ta'limotni targ'ib, tashviq qilishda; xudojo'y kishilarning ollohga bo'lgan e'tiqodini kuchaytirishda; dinu shariatning amaliy shartlarini o'rganishda ko'mak beradi. Ikkinchidan, uning asarlari badiiy ijod mahsuli bo'lib, shoirning istedodqirralarini ko'rsatadi.

So'fi Olloyorning chuqur g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan asarlari badiiy balog'at namunasidir. Asarlaridagi o'ziga xoslik ko'proq badiiyatida, yangicha tasvirlarda namoyon bo'lganini ko'rish mumkin. So'fi Olloyor inson xarakterini yoritishda tabiatdan dalillar izlaydi. O'ziga xos, kutilmagan o'xshatishlar, jonlantirishlar topadiki, ulardan ma'naviy ozuqa olib, hayratlanamiz, tabiatga yana bir qadam yaqinlashgandek bo'lamiz:

Kulub mehmon qoshig'a chiqq'il, ey qul,
Shajar mevadin oldin ko'rsatur gul.¹

Hayotda insoniy sifatlarni qalbga jo qilish maqsadida bir necha nasihatlar aytgan shoir umrning o'tkinchiligi, shu o'tkinchi qisqa vaqt davomida insonlarni yaxshi xulqli bo'lishi lozimligi mevali daraxt misolida tasvirlangan. Ya'ni, kulib gapirish bilan ishning natijasi yaxshi bo'lishi, insonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati tabiat misolida aks ettirilgan.

Shoir tamsil san'ati vositasida aytmoqchi bo'lgan fikrini oson tushuntirgan. Haqiqatan ham mevali daraxt avval gullaganidek, insonlar bilan munosabatga kirishgan kishi xushmuomala, go'zal chehrasi tufayli o'z maqsadiga erisha oladi. Baytda mehmon kutish odobi, ya'ni mehmonni nozu ne'matlar bilan siylashdan avval unga tabassum hadya qilish kerakligi tabiatdan misol keltirish orqali uqtirilgan. Zotan, tabiatdan o'rnak oladigan bo'lsak, daraxt ham

¹ So'fi Olloyor sabot ul ojizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-120

meva berishdan avval gul ochadi.

So'fi Olloyor aytmoqchi bo'lgan fikrini harfiy san'at(kitobat) orqali ifodalagan baytlarni ko'p uchratamiz. Bu san'atning o'ziga xos topilmalari bilan shoir hikmatli so'z darajasidagi go'zal fikrlarni, xulosalarni bayon etadi:

Kalidi ganji ma'nikim, zabondur,
Anga bir nuqta ko'p bo'lsa ziyondur.¹

Til ma'nolar xazinasining kalidi. U orqali inson ko'ngliga duru gavharlar sochiladi. U tufayli dunyo mohiyati zabonga ko'chadi. Mohiyat go'zal liboslarga burkanadi, ammo til o'z me'yorini unutsa, so'zni behadu hudud ishlatsa, zararga aylanadi. Shoir bu mazmunni juda tushunarli tarzda ifodalaydi. Kam va xo'b so'zlash donolikning, behuda ko'p so'zlash nodonlikning belgisi ekanligini «zabon» ning arab alifbosidagi yozuv shakli orqali juda chiroyli aks ettiradi. «Zabon» so'zida «b» harfining ostida bitta nuqta bo'lib, agar u nuqta yoniga ortiqcha bir nuqta qo'yilsa, bu so'z «ziyon» so'ziga aylanib qolishi ortiqcha so'z, ya'ni nuqta ziyon keltirishi izohlanadi. Shoir so'zning tashqi o'zgarishidan chuqur ma'noli mohiyatni, donishmandona xulosani ifodalashda ustalik bilan foydalangan. Uning fikricha, kerak joyda ko'p so'zlashdan saqlanish nutq odobidir.

So'fi Olloyorning «Sabot ul ojizin» asari badiiyatida eng yaqqol ko'zga tashlanadigan jihat bu shoirning tajnis san'atidan keng foydalanilganidir. Bu san'at omonim so'zlar vositasida jinsdosh so'zlar orqali so'z o'yini xosil qilishdir.

«Tajnis» badiiy san'tlardan biri bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra hamjins, jinsdosh ma'nolarni anglatadi. Tajnis shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi so'zlar (omonim)ni qo'llash orqali so'z o'yinlarini ishlatishga imkon beradi.¹

Asarning har bir sahifasida o'nlab tajnis bilan bog'liq misralarga duch kelamiz:

Qanoat ma'daniga och ko'zing och,

Tama' bo'yi ko'rinmay bo'yidin qoch.²

Ushbu baytda tolib sabr-qanoatga da'vat etiladi. Birinchi misradagi «och» so'zi avval ochlik, ochko'zlik, keyin esa ochmoq ko'zni ochish ma'nolarida ishlatilgan. Ikkinchi misrada «bo'y» so'zi bilan tajnis yaratilgan. Dastlabki «bo'y» tama'ning qaddi basti, ta'magirlik tuyg'usi ma'nosida, keyingi bo'y so'zi «hid» ma'nosida ishlatilgan. Baytda bu san'atdan foydalanish muallifga qisqa hajmda yirik mazmunni ifodalash imkonini bergan.

Asardagi bir necha boblarda, jumladan, ta'madin qochmoq bayoni, nafs shum bayoni va musannif vasiyatlar kabi boblarda bu usuldan nisbatan keng va o'rinli foydalanilgan. Masalan:

Dema, harfiki bo'lsa bema'ni,

Agar til zaharlik bo'lsa til ani,

Yigirma jifa ko'p yig'lamoqqa yil, oy,

Bo'lay deb boy bisoting bermagil boy.

Eshitmak naf'i yo'q so'z, ey neku zot,

Ani ham go'sha olma go'sha chiq yot.³

Kishi sanchiq so'z aytsa, sanchiq andin
Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin!¹

¹ So'fi Olloyor sabot ul ojizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-120

¹ Isoqov Yoqubjon. so'z san'ati so'zligi. Toshkent: Zarqalam. 2006. B-59

² So'fi Olloyor sabot ul ojizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-53

³ So'fi Olloyor sabot ul ojizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-104

¹ So'fi Olloyor sabot ul ojizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-104

Yuqoridagi birinchi baytda “til” soʻzi vositasida zahar tilni tilish kerak degan fikr, ikkinchi baytda esa “boy” soʻzi dastlab, “boy boʻlmoq”, keyin esa “boy bermoq” iborasi mazmunini anglatib ajoyib soʻz oʻyini hosil qilingan. Uchinchi baytdagi goʻsha soʻzi avval “quloqqa” yaʼni “qulogʻingga” maʼnosida, soʻng goʻsha chiq jumlasida “uydan” yaʼni “eshitmoq lozim boʻlmagan joydan tashqariga chiq” maʼnosida ishlatilgan. Tajnisning bir necha turlari mavjud boʻlib, dastlabki uch baytda tajnisi tom, yaʼni tajnisi mutlaq turidan, oxirgi misolimizdagi baytda tajnisni “tajnisi murakkab” turining “jinosi mafruf” (ajratilgan tajnis) xilidan foydalanilgan. Yaʼni “sanchiq” bitta sodda soʻz boʻlib, zaharxandalik bilan aytilgan soʻzni “sanchiq” soʻz deya taʼriflangan. Ikkinchi “sanchiq” jumlasida esa san va chiq soʻzlari ajratib yozilgan. “sen u yerdan chiq”, maʼnosida yaʼni yomondan qochish maqsadida “u yerdan chiq” degan maʼnoni anglatish uchun keltirilgan. Talafuzdagi oʻxshashlik tajnis sanʼatini yuzaga keltirib, xalqona qisqalik va donolikka erishish uchun sabab boʻlgan.

Xuddi shu sanʼat asosida aytmoqchi boʻlgan fikrini shoir ixcham va sodda, xalqona ohanglar bilan oʻquvchiga yetkaza olgan. Masalan, quyidagi baytlarda ham:

Agar nafsing sani yetmish boshingdin,
Na boʻlgʻay foyda yetmish yoshingdin.²

Shoir nafsini yengish maqsadida, nafs balosi boshingga yetsa, yetmish yoshga kirganing bilan foydasi yoʻq, yosh boladay uquvsiz boʻlib qolaverasan, deb, “yetmish” soʻzi vositasida tajnis sanʼatidan unumli foydalangan. Zero quyidagi baytlarda ham:

Agar nafsing murodin izlamaksan,
Agar saksonga umring yetsa saksan

Agar kundan agarchi xavfi yoʻqsan,
Agar toʻqsongʻa kirsang, koʻngli toʻqsan.¹

Shoir “sakson” soʻzini dastlab, “raqam” maʼnosida, soʻngra “sak san” soʻzi nafsining murodini koʻzlab yuruvchi “it” soʻzi maʼnosida ishlatgan.

Toʻqson soʻzi ham ikki oʻrinda ikki xil maʼnoda ishlatilgan. Dastlabki “yosh” yaʼni, “toʻqson yosh” maʼnosida, keyingi jumlada esa “koʻngli toʻqsan” maʼnosida soʻz va ibora orasida tajnis hosil qilingan. Soʻfi Olloyor eʼtiqodicha, insonning maʼnaviy jihatdan barkamolligi uning ruhiy olami bilan bagʻliq. Bu oʻrinda shoir kuchli qiyos tashbeh qoʻllaydi:

Hamma aʼzo raiyatdur, koʻngil shoh,
Amonligʻ boʻlgʻusi shogʻ adlidan roh.

Agar sulton oʻzi qilsa yomonligʻ
Qachon boʻlgʻay raiyatda omonligʻ.²

Baytlardagi tashbeh inson vujudini harakatdagi jamiyatga oʻxshatish bilan yuzaga kelgan. Vujud aʼzolarini xalqqa raiyatga, koʻngilni esa, xalqni boshqaruvchi shohga-sultonga qiyoslanmoqda. Agar shoh adolatli boʻlsa, haloyiqni toʻgʻri yoʻlga boshlaydi, davlat va jamiyat ravnaq topadi. Agar shohning oʻzi adolatsiz boʻlsa, davlat va jamiyat tanazzulga uchraydi. Demak, ezgu faoliyat koʻngilni poklashni taqozo etadi. Bu xildagi baytlarda yaʼni tashbehning “tashbehi muyaqqad” turi qoʻllangan oʻrinlarda tashbeh juzvlaridan mushabbih va mushabbihun bih ishtirok etib, vajhi shabih va vositai tashbihlar tushirib qoldirilgan. Tashbihi muyaqqad tashbihi mufassalga qaraganda oʻxshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Baytdagi

² Soʻfi Olloyor sabot ul oʻjizin. Toshkent sanʼat jurnali. 2007. b-122

¹ Soʻfi Olloyor sabot ul oʻjizin. Toshkent sanʼat jurnali. 2007. b-122

² Soʻfi Olloyor sabot ul oʻjizin. Toshkent sanʼat jurnali. 2007. b-111

"vujud a'zolari", "ko'ngil"-mushabbih; "xalq-riyat", "shoh sulton" so'zlari esa mushabbihun bih bo'lib kelgan.

Sharq adabiyotshunosligida tashbihlar haqiqiy va majoziy tashbihlarga bo'lingan. Aniq hayotiy buyumlar o'hshatish uchun tanlangan bo'lsa, haqiqiy tashbih, noaniq, mavhumiy tushunchalar tanlangan bo'lsa, majoziy tashbih hisoblangan.¹

Masalan, So'fi Olloyor ijodida bir narsani hayotiy tarzda tasvirlash uchun ko'proq tashbehning haqiqiy tashbeh turidan foydalanilganini kuzatish mumkin. Ko'ngilni poklash, uzluksiz Olloh yo'lida iymonli bo'lishni, riyozatni talab qiladigan hayotiy jarayondir. Bunga misol qilib, So'fi Olloyor riyozatni yong'oqqa qiyoslaydi:

Riyozat mevasidir misli yong'oq,
Agarchi zohiri shoh, botini yog'.

Maishat zohiri narm, oxiri qahr,
Yilonni toshi yumshoqdur ichi zahr.²

Shoir talqinicha, riyozatning mevasi bamisoli yong'oqdir. Riyozatning tashqi ko'rinishi mashaqqat, ammo ichki mohiyati rohat bo'lganidek, yong'oqning ham po'chog'i qattiq, ammo mag'zi yog'dek yumshoq va yoqimlidir. Ayshu ishrat esa ilonga o'xshatiladi. Maishatning tashqi oqibati qahr-g'azab, u ba'zan fojea bilan yakunlanadi. Ilonning ham badani yumshoq, ichi esa to'la zahar. shuning uchun shoir riyozat tuprog'iga har kun bosh qo'yishga ibodat qilishga chorlaydi:

Riyozat xokiga har kecha ur bosh,
Yurak qon bog'lasa, la'l atanur tosh.³

Zotan muhabbat dardida riyozat chekkan yurak qon bog'lab, la'l toshidek qip-qizil tus oladi. Ikkinchi misrada riyozat chekmagan ko'ngilni oddiy toshga qiyos etgan shoir, riyozat bog'lagan ko'ngilni la'lga tashbeh etadi. Ammo bu tashbeh shartli o'xshitish asosida yuz bergani sabab, tashbehning tashbehi mashrut turidan ham foydalanib, go'zal fikrlar ayta olgan shoir mahoratini namoyon etmoqda.

So'fi Olloyor faqat diniy-didaktik asarlar muallifigina emas, keng ommaning diqqatini o'ziga torta olgan iste'dodli lirik shoir hamdir. So'fi Olloyorning 80 ga yaqin lirik she'rlari go'zal badiiyat namunasi sifatida e'tirof etilgan, masalan:

So'zi a'lo, fe'li a'lo, koni tamkinu hayo,
Husni Yusuf, yoshi Yahyo, lutfi Isovorsan.

Soch suman, gulgun badan, ham lab badaxshon, tish yaman,
Shisha ko'ngul, guljabin har maslahatdin borsan.

Mehri andak ham vafosig'a jafosu nechalik,
Fe'li tojik, zoti o'zbeklikda turovorsan,

Egri obro', xol xindu, zulf har su mushk bo',
Ko'zi jodu, kifrigi otqu, baloraftorsan.

Aytdim, ey moh so'zla zarra, bandani holi taboh,
G'amza birla, shukrulloh, dedi "Ollohyorsan".¹

¹ Xojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent. sharq. B-14

² So'fi Olloyor sabot ul o'jizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-90

³ So'fi Olloyor sabot ul o'jizin. Toshkent san'at jurnali. 2007. b-90

Ko'rinib turibdiki, g'azalda "musajja'", (qofiyali, saj'li ma'nosini anglatadi) usulining ajoyib ko'rinishidan foydalanilgan. G'azaldagi dastlabki ikki baytning har birinchi misrasida ichki qofiya ishlatilgan. G'azalda qo'llangan musajja' usuli ohangdorlikni g'oyatda kuchaytirib, unga joziba va latofat bag'ishlagan. So'fi Olloyor bu g'azalni oruzning foilotun foilotun foilun shaklida, ya'ni ramali musammani mahzuf vaznida yozgan. Shoir musajja g'azallarni vazmin salobatli o'lchovlarda emas, yengil o'ynoqi vaznlarda ham bitish mumkinligini, bu o'lchovlarda musajja she'rlar yanada jozibaliroq ohang kasb etishini dalillagan.

So'fi Olloyor musajja' usulini qo'llash bobida noan'anaviy tarzda yangi ixtirolar yaratib, g'azaldagi har bir baytda emas, balki har qaysi misrani to'rt bo'lakka bo'lib, ularda ichki qofiya ishlatgan. Yuqoridagi g'azal baytlari bu ko'rinishga misol bo'ladi. Bu xildagi ichki qofiyaga ega bo'lgan baytlar So'fi Olloyor ijodida to'rtta teng bo'lakka bo'linishi mumkin bo'lgan sakkiz ruknli (musamman) baytlardagina uchraydi. G'azalning to'rtinchi baytida qo'llanilgan tajziya (misra bo'laklarining qofiyalanishi) usuli bayt ohangdorligini va mazmunini oshirishga yordam bergan.

Turkiy she'riyatda Navoiy ijodiga qadar ham g'azallardagi ayrim baytlarni musajja' shaklida bitish usuli qo'llangan. Chunonchi, Hofiz Xorazmiyning bir g'azalida:

Bandi g'am ichra xastaman, zulfing bikin ishkastaman,

Ishkastayu ham bastaman, bu qulni kel ozod qil.¹

bayti uchraydi. G'azalning boshqa baytlari odatdagicha oddiy, faqat baytlari oxiridagi so'zlarga qo'fiyalangan.

Musajja' usulini turkiy she'riyatda ilk bor Alisher Navoiy qo'llaganini ta'kidlash lozim. Buyuk mutafakkir shoir "Xazoyin ul-ma'noiy" asaridagi qator g'azallarni shu usulni qo'llagan holda yaratgan. Bobur, Ogahiy, Mashrab, Furqat she'riyatida o'ziga xos o'rin tutgan masajja' she'rlar So'fi Olloyor lirikasining jozibador bo'lishi uchun bir vosita bo'ldi. So'fi Olloyorning tasavvufiy she'rlarida ko'proq qo'llanuvchi tagzaminni ko'chma ma'noli tashbehtar tashkil etadi:

Ko'rk uchun tushti ziloli la'li mushkin xatti xol,
Tushti suhbat Xizr ila Kavsar qirg'og'inda hilol.

Nargisi masting xumori bodadin gulgunmidiro',
Yo budurkim-lolazor ichra tushar vahshi g'izol.¹

Shoir 1- baytda ma'shuqa husni jamolini tasvirlar ekan, yorning zilol labi ustiga husn bo'lib tushgan xatti xoli kavsar arig'i bo'yida suhbat qurayotgan Hizr hamda yangi oyni eslatishini aytib, talmeh, tashbeh, tanosub san'atlaridan mohirona foydalangan. Diniy afsonalarga ishora etib, o'z fikrini badiiy vositalar orqali ifoda etgan. Shoir 2-baytda yor yuzini lolazorga qiyoslaydi; ko'zlar esa boda xumoridan gulgun ekanini aytib, bu qiyos yanada bo'rtirilib, bu ko'zlar yuz, ya'ni lolazor ichra nogahon tushib qolgan ohu-kiyik emasmikan, degan savol beriladi. Shoir bu baytda ma'shuqaning go'zal chehrasini tajohuli orif, istiora va tashbeh vositasida tasvirlaydi. So'fi Olloyorning diniy-ma'rifiy, va lirik adabiy merosi g'oya, mazmun va badiiyat jihatidan o'ziga xos mutanosiblik kasb etgan. Yuqoridagi tahlil doirasiga tortilgan misollar asosida aytish joizki, shoirning adabiy merosi go'zal badiiy tasvirlarga boy.

So'fi Olloyor ijodida uchrayotgan badiiy tasvir vositalari shoir fikrini aniq, sodda tushuntirishiga xizmat qilgan. Bu san'lar vositasida shoir o'z ijodini ixcham, xalqona ohangda, sodda va ravon bo'lishiga erishgan.

So'fi Olloyor mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan ko'plab badiiy san'atlardan

¹ Orzibekov Rahmonqul. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'amasi 2006. B-82

¹ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: sharq. 1998. B-146.

¹ Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O'zbekiston. 2006. B-82.

unumli foydalangan. Jumladan, tashbeh, tajnis, talmeh, tazod, husni ta'lil, tamsil kabi tasvir vositalarining o'ziga xos ko'rinishlaridan, noan'anaviy topilmalaridan ustalik bilan foydalangan. Baydlardagi tasvir vositalari shoirga qisqa hajmda yirik mazmunni ifodalash imkonini yaratgan. Chuqur g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan. So'fi Olloyor ijodi badiiy balog'atning noyob namunasidir. Shoir dunyoqarashi, iste'dodi borasidagi tasavvurimizni boyitadigan, inson kamoloti tarbiyasiga bag'ishlangan nodir asarlari bugungi kun o'quvchisi ko'nglini uyg'oqlikka, bedorlikka, poklikka boshlovchi buyuk kuchga ega. Uning ijodi insoniyatni g'aflatdan ogohlantiradi. Uni yengish sir-sinoatidan xabardor etadi. So'fi Olloyor asarlari mazmun mohiyatiga ko'ra, islom dini qonun-qoidalarini, tasavvuf ta'limoti mohiyatini, go'zal insoniy axloq mezonlarini yoritib, insoniyatni komillik sari yetaklaydi.

X U L O S A

Biz yashayotgan ona zamin azaldan islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan buyuk allomalar, muhadislar hamda dunyo ilm-fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan qomusiy olimu ulamolar, donishmandlar yurtidir. Yurtimizda yashab o'tgan mana shunday buyuk allomalarimizning qilgan sa'yi-harakatlari, urinishlari, izlanishlari, ularning fayzu tarovatlari, qolaversa, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq Yurtboshimizning obodonchilik va bunyodkorlik sohasida olib borayotgan izchil siyosatlari, allomalarimiz ruhiga ko'rsatgan chuqur ehtiromlari tufayli yurtimizning azim poytaxti Toshkentni 2007 yil "YUNESKO" tashkiloti tomonidan islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilinishi bejiz emas. Bu-ona zaminimizga berilgan buyuk maqom. Mustaqillik sharofati bilan millatga manaviy barkamollik bahsh etuvchi Ahmad Yassaviy, Huvaydo, Mashrab, So'fi Olloyor kabi o'nlab ijodkorlar ijodi yangicha talqin etilmoqda.

So'fi Olloyor ijodi o'z davrida ham ma'lum va mashhur edi. Mustaqillikdan so'ng adib asarlari yana keng aholi qatlamlari orasida chuqur o'rganilmoqda. So'fi Olloyor ijodiyoti bilan tanishib, ushbu bitiruv-malakaviy ishda adibning axloqiy-ta'limiy qarashlari tahlil doirasiga tortildi. Ilmiy izlanishlar davomida So'fi Olloyor ijodiga xos quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

1. Soʻfi Olloyor oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixidagi diniy-tasavvufiy qarashlarni badiiy-tashviqiy yoʻsinda davom ettirgan, bu haqda bir necha masnaviy asarlar yaratgan ilohiyotchi mutafakkirdir.

2. Soʻfi Olloyor islom dini qonun-qoidalarini, tasavvuf taʼlimoti mahiyatini, komil insonning axloq mezonlarini yorituvchi bir qancha asarlar muallifi. "Maslak ul-muttaqin", "Sabot ul ojizin", "Murod ul orifin", "Maxzan ul-mute'in" kabi asarlari shular jumlasidandir.

3. Soʻfi Olloyorning eng mashhur asari "Sabot ul ojizin" boʻlib, asar, dastlab, fors-tojik tilida yozilgan. Keyinchalik turkiyoʻy qavmlar iltimosiga binoan, Soʻfi Olloyorning oʻzi asarning oʻzbek tiliga sheʼriy usulda tarjima qilgan. Asar hajmi 12 ming baytdan ortiq. U katta-kichik bir qancha boblarga ajratilgan. Asar yaxlit syujet chizigʻiga ega boʻlmasa-da, fikr va gʻoyalarni umumlashtirib, birlashtirib turuvchi resha bor. U komil inson masalasi.

4. Ilohiyotchi shoir Soʻfi Olloyor Olloh taoloning maʼrifati, tavhidi, sifatleri, iymon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, paygʻambarimiz shafoti, umrning foniyligi, avliyolar karomati, piru komillar xosiyati, rizo va sabr, taʼma, dunyo hiylalaridan qochish, kibr-havoli boʻlmaslik, muloyim soʻzlilik, insoniylik, mehr-muruvvatli boʻlish kabi komil inson qiyofasini belgilovchi aqida afzalliklari haqida sodda, xalqona tilda, shoirona bayon etadi.

5. Soʻfi Olloyor ijodi, axloqiy-taʼlimiy qarashlari Ahmad Yassaviy va Sulaymon Bayirgʻoniy ijodi bilan qiyosan oʻrganilganda, ular ijodiga xos mushtaraklik nafsni jilovlash, taʼma va kibr-havodan yiroq boʻlish haqidagi komil inson tarbiyasi bilan bogʻliq tasvirlar boʻlsa, farqli jihatlar ham koʻzga tashlanadi: Soʻfi Olloyor oʻzbek adabiyotiga diniy ilmiy yoʻnalish olib kirdi. Uning kitoblari taʼriflangan islom arkonlari va ahkomlari islom dinini oʻrganuvchilar uchun muhim qoʻllanma, darslik vazifasini oʻtadi. Fikrimizning tasdigʻi sifatida "Shoʻro" jurnalining 1917 yil 7-sonida bosilgan quyidagi xabarni keltiramiz: "Usuliqadim ila oʻqigan zamonda maktablarda ham oʻquvchi bolalarning hech biri "Sabot ul ojizin" oʻqimay qolmagan. Ul vaqtda devorga osib qoʻyilgan "programma" degan narsa boʻlmasa-da "Sabot ul ojizin"ni oʻqimay oʻtish mumkin emas edi. "Sabot ul ojizin"ning sharhi "Risolai Aziza" oʻqitilar edi".

6. Soʻfi Olloyor adabiy merosining oʻrganilishi u yashagan davrdan boshlangan. Oʻsha davridayoq adibning turkiy, forsiyda bitilgan kitoblariga lugʻatlar tuzilgan, sharhlar yozilgan.

7. BMI ni yozish davomida shoir ijodidagi islomiy maʼrifat va tasavvuf taʼlimoti gʻoyalariga boʻlgan munosabat aniqlandi. Shoir ijodining gʻoyaviy mazmuni va badiiy jihatlari, shoirlik mahoratining oʻziga xos qirralari tahlil doirasiga tortildi. Soʻfi Olloyor ijodida ilohiy muhabbat ezgulikka, Xaq va haqiqatga boʻlgan ishq kuchli ekanini koʻzatdik. Komil inson, avvalo, oʻzini –oʻzi poklashi, haqiqatni idrok etishi uchun tana ham, niyat ham, qalb ham, fikru andisha ham, feʼlu xulq ham pok boʻlishini angladik

8. Soʻfi Olloyor ijodi ikki jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, uning asarlari diniy taʼlimotni targʻib, tashviq etishda; xudojoʻy kishilarning Ollohga boʻlgan eʼtiqodini kuchaytirishda; dinu shariatning amaliy shartlarini oʻrganishda koʻmak beradi. Ikkinchidan, uning asarlari badiiy ijod mahsuli boʻlib, jonli, obrazli, sodda tilda oʻz aqidalarini tushuntirishga harakat qilgan shoir isteʼdodining oʻziga xos qirralarini namoyon etadi.

9. Soʻfi Olloyorning chuqur gʻoyalar targʻibiga bagʻishlangan asarlari badiiy balogʻat namunasidir. Asarlaridagi oʻziga xoslik koʻproq badiiyatida, yangicha tasvirlarda namoyon boʻlganini koʻrish mumkin. Shoir tashbeh, istiora, tamsil, mubolagʻa, husni taʼlil, tajnis, kitobat kabi badiiy tasvir vositalaridan oʻrinli foydalangan holda keng qamrovli mazmunni ixcham, sodda va tushunarli jumlar bilan aks ettira olgan. Masalan:

Kulib mehmon qoshigʻa chiqqʻil, ey qul,
Shajar mevadin oldin koʻrsatur gul.

Shoir insoniy sifatlarni qalbga jo qilish haqida tabiatdan misollar keltirib, oʻquvchi qalbini tabiatga bir qadar yaqinlashtiradi. Baytda shoir istiora sanʼati orqali "inson"ni "qul" deb atamoqda va har bir inson mehmon kutganda ochiq chehrali boʻlishi uqtirib, "tamsil" sanʼati

orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini oson tushuntirish uchun tabiat hodisasidan ajoyib misol keltiradi. Masalan daraxt meva berishidan avval gullab yashnashi o'quvchi ko'z oldiga keladi.

10. Shoir badiiy tasvir vositalari orasida tajnis, kitobat san'ati va qofiya usuli borasida esa mutlaq qofiya, musajja', tajziya kabi usullarning o'ziga xos shakl ko'rinishlaridan ko'proq foydalanib go'zal tasvirlar yarata oldi. U qo'llagan badiiy tasvir vositalar shoir iste'dodi va dunyoqarashi haqidagi tasavvurimizni boyishiga omil bo'ldi.

1644 yilda Samarqandning Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida xitoyqipchoq qabilasining o'tarchi urug'idan bo'lgan Olloquli (Temiryor) xonadonida dunyoga kelgan So'fi Olloyor umrining oxirgi yillarida Buxoro amiri tomonidan akasi Farhod otaliqning ta'qib etilishiga xavsirab G'uzor bekligiga ketib, Denov muzofotida yashaydi. Shoir ancha uzoq umr ko'rib, 1724 yili Katta Vaxshivor qishlog'ida vafot etadi. Allomaning bir o'g'li va ikki qizi bo'lib, ularning qadamjolari Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanining Cho'nqaymish qishlog'idadir. Allomaning qabri esa Surxandaryo viloyatining Denov tumanida. So'ngi yillar So'fi Olloyor tavallud topib, ancha yillar yashagan maskanlarda alloma sharafiga ilmiy anjumanlar o'tkazildi, xotira, yodgorlik maydonlari ochildi, yodgorlik haykallari, marmar lavhalar o'rnatildi. So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an'analarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan istedadli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir. Uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining nodir xazinasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Ijtimoiy –siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent: O'zbekiston. 1994. –B. 118.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O'zbekiston. 1998.-B.688.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq. 1998. 3-bet.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent: O'zbekiston. Asarlar.7-tom. 1999.-B. 351.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2002.-B. 192.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008.-B.176.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent: O'zbekiston. 2009.-B. 56
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chaqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent: O'zbekiston.2010.-B. 56.

9. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi./O'zbekiston ovozi/ 2010. 1-sentabr.
10. Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir. /Ishonch/ 2010.8-dekabr.
11. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. /Xalq so'zi/ 2011. 22- yanvar

II. Badiiy adabiyotlar:

12. So'fi Olloyor. Sabot ul –ojizin. Toshkent:. San'at jurnali. 2007 –B. 156
13. So'fi Olloyor. Maslak ul –muttaqin. Toshkent:. Movarounnahr. 2007.-B.416.

III. Ilmiy- nazariy adabiyotlar.

14. Adizova Iqboloy. So'zumni o'qub anglag'ay sen o'zumni. Toshkent:. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2008.-B.136.
15. Adizova Iqboloy. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent:. Fan. 2009.-B.248.
16. Hasanov B. Qo'lyozma lug'atlar tavsifi. Toshkent:. //Adabiy meros//. 1980.3-son.
17. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. Toshkent:. Fan. 1993.-B.372.
18. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent:. Sharq.1998. –B. 160.
19. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi?. Toshkent:. Sharq.2001.-B.96.
20. Haqqulov I. E'tiqod va ijod. Toshkent:. Fan.2007.-B. 248
21. Homidiy Homidjon. "Avesto"dan "Shohnoma" gacha. Toshkent:. Sharq.2007.-B.320.
22. Husanboyeva Qunduzxon. Adabiyot- ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent:. A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi.2009. –B.366.
23. Inomxo'javey S. O'tmish sharq notiqligi. Toshkent:.O'zbekiston. 1972.-B. 40.
24. Islom tasavvufi manbalari. Toshkent:. O'qituvchi. 2005. –B. 400.
25. Jamol Muhbud Oqchurin. "Sabot ul –ojizin" kitobi / SHO'ro / 1917. 7-son
26. Komilov N. Tasavvuf . Toshkent:. Movarounnahr. O'zbekiston. 2009. –B.448.
27. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. Toshkent:. O'qituvchi. 1994.-B. 272.
28. Ortiqov Abdurahmon. Ortiqov Abdug'affor. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Toshkent:. Dono-hamro. 2002.-B. 80.
29. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent:. O'zbekiston Yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi. 2006. –B. 272.
30. Qur'oni Karim. Toshkent:. Movarounnahr. 1992.-B. 406.
31. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent:. Akademnashr. 2010. –B. 397.
32. Rafiddinov S. Qissai Mashrab. Toshkent:. Yozuvchi. 1992.-B. 172.
33. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. Toshkent:. Fan. 1995.-B 160.
34. Suvonqulov Inoyatulla. So'fi Olloyor Toshkent:. Fan. 1995.-B 146.
35. Sapoyev R. Avezmetov Sh. O'zbek tilidagi arabcha va forscha so'zlar lug'ati. Toshkent:. O'qituvchi. 1996.- B. 192.
36. Sirojiddinov Shuhrat. So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism Toshkent:. Fan. 2001 –B. 78.
37. Vohidov R.J, Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. I,II-qism. Toshkent:. O'zbekiston Yozuvchilar uyishmasi. 2006.-B.200.
38. Zohidov R. So'fi Olloyor haqida nimalarni bilasiz? // SHarq yulduzi // 1990. 12-son.
39. Shamsiddin Hoji Muhyiddin o'g'li. So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" kitobiga izohiy lug'at. Jalolobod. 1996. –B. 54.

Internet adabiyotlari :

40. www.ecoform. sk. uz
41. www. Istedod.uz
42. www. Ziyonet. uz

